

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani

_____ f.f.n. Sh.Nuriddinov

“ _____ ” _____ 2016- yil

“5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)” ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

XURRAMOVA GAVHAR RUSTAM QIZINING

**IKROM OTAMUROD SHE‘RLARIDA
LISONIY TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIK**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____ G.Xurramova

Ilmiy rahbar _____ f.f.n. O.Shukurov

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi kafedrası mudiri

_____ f.f.n. E.Jabborov

“ _____ ” _____ 2016- yil.

QARSHI – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. LISONIY TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIKNING O‘RGANILISHI HAMDA FONETIK SHAKLLARDA IFODALANISHI	
1.1. Lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning o‘rganilishi.....	5
1.2. Poetik matnda fonetik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xususiyatlari.....	13
IKKINCHI BOB. LEKSIK-SEMANTIK TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIK HAMDA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI	
2.1. Poetik matnda leksik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi.....	21
2.2. Poetik matnda semantik ortiqchalik hamda uning uslubiy xususiyatlari	29
UCHINCHI BOB. GRAMMATIK TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIK HAMDA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI	
3.1. Poetik matnda morfologik tejamlilikning kelishik, egalik, shaxs-son hamda kesimlik shakllarida uslubiy xoslanishi	37
3.2. Poetik matnda morfologik ortiqchalikning ifodalanishi va sintaktik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi.....	47
XULOSA	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, badiiy matnning bir ko'rinishi bo'lgan poetik matnda fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik shakllarni nutqiy ixchamlikka asoslangan holda tushirib qoldirish yoki konnotativ ma'no ifodalash maqsadida orttirib qo'llash yetakchi sanaladi. Poetik matnda til birliklarini o'rinli joylashtira bilish muhim ahamiyatga egadir, zero, xoh adabiy til, xoh badiiy til bo'lsin, agar meyor bo'lmasa, g'alizlik yuzaga keladi. Poetik matnda til birliklarini tarkibdan tushirish yoki ortiqcha qo'llashdan ko'zlangan maqsad qay darajada ekanligi muhim ahamiyatga ega, bu esa tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek tilshunosligida tejamlilik tamoyilining amal qilish qonuniyatlari A.Nurmonov, N. Mahmudov, J.Eltazarov tomonidan, ortiqchalik tamoyili esa N.Mahkamov, B.Sheronov, R.Yusubova tomonidan monografik planda tadqiq etilgan¹. Shuningdek, tejamlilik tamoyili xususida M.Mirtojiyev, I.Shukurov, M.Misliddinova, M.Turobova kabi olimlar, ortiqchalik xususida R.Qo'ng'urov, N.Mahkamov, M.Turobova, O.Tojiyev kabi olimlar fikr yuritganlar. Ayrim darslik hamda qo'llanmalarda mazkur oppozitiv tamoyillarga to'xtalib o'tilgan o'rinlar uchraydi.

Mazkur ishda lisoniy tejamlilik va ortiqchalik masalasi kun tartibiga qo'yilgan bo'lib, bu hodisa asosan she'riy matn tahlili asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy birliklarni tejab qo'llash nutqiy ixchamlik, mazmunni oson tushunish, vazn o'lchoviga muvofiqlik, bir xillikka yo'l qo'ymaslik va ayrim o'rinlarda konnotativ ma'no ifodalash uchun bo'lsa; lisoniy ortiqchalikning uslubiy maqsadni nazarda tutgan holda, shakllarning ortiqcha yoki ko'p qo'llanishi bilan yuzaga kelishini ko'rsatib berishdan iborat.

¹ Mahkamov N. Terminologiyada "ekonomiya prinsipi" // O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. -T.,1986. (byulleten O'zR FA). -B. 49-50.; Yusubova R. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. -T., 2011. 26 bet.; Sheronov B. O'zbek tili gap qurilishida lisoniy ortiqchalik: Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. -T., 1996. -B.9.

Tadqiqot vazifalari esa o'zbek tilshunosligida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining o'rganilganlik darajasini aniqlash, poetik matnda fonetik, leksik, semantik, morfologik va sintaktik tejamlilik hamda ortiqchalikning badiiy axborotni ifodalashdagi o'rnini ko'rsatish, mazkur kuzatuvlardan olingan natijalarni umumlashtirish va yakuniy xulosalar chiqarishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Ilmiy izlanishning obyekti sifatida o'zbek she'riyatiga munosib hissa qo'shgan Ikrom Otamurodning she'rlari olindi. She'riyatda lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining usubiy xususiyatlarini tadqiq etish ishning predmeti sanaladi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari. O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolarini o'rganish borasidagi olimlarning tajribalari tadqiqot uchun ilmiy-uslubiy asos vazifasini o'tadi. Ishda obyektiv borliq va uni ifodalovchi til materiallari dialektik metodologiya asosida yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi:

- lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning yuzaga kelishida lisoniy birliklarning mavqehi belgilandi;
- lisoniy tejamlilik tamoyilida fonotsion energiyani tejash vazn o'lchovi talabi bilan bog'liq bo'lishi, yuzaga kelgan ixchamlikning ekspressiv vazifaga xizmat qilishi kabi masalalar yoritildi;
- lisoniy ortiqchalikning poetik matn misolida stilistik vazifani ta'min etishdagi ahamiyati ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi:

- maktab o'qituvchilari uchun ona tili darsligiga qo'shimcha ravishda metodik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi;
- ta'lim tizimida interfaol darslar o'tishda, namunali va ochiq dars va muammoli darslar tashkil qilish hamda mavzuga doir maxsus kurslar tashkil etishda manba vazifasini o'taydi.

Ishning tuzilishi, tarkibi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyot ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 60 sahifa (11712 so'z)ni tashkil etadi.

BIRINCHI BOB. LISONIY TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIKNING O'RGANILISHI HAMDA FONETIK SHAKLLARDA IFODALANISHI

1-§. Lisoniy tejamlilik va ortiqchalikning o'rganilishi

Ma'lumki, millatimizning ruhi bo'lgan o'zbek tili qurilishining ilmiy-nazariy talqini milliy mafkura va g'oyalarimizning ravnaqi uchun muhim zaminlardan biridir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov: "...o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasizdir"¹, – deb bejizga ta'kidlamagan edi. Har bir til jamiyat bilan birgalikda uzluksiz taraqqiy etib borar ekan, lingvistik omillar tilshunoslar oldiga yangi-yangi tadqiqotlarni ko'ndalang qo'yaveradi. Ayniqsa, badiiy asar tilini o'rganish o'zbek tilshunosligining hozirgi kundagi munozarali va dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi kunda ijodkorlar mahoratini belgilash uning til unsurlaridan foydalanish borasidagi mohirligi mezoni bilan bevosita bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda, biroq badiiy nutqning barcha ko'rinishlarida til birliklarini qo'llash va tanlash imkoniyatlari bir xil emas. Albatta, adabiy meyor har bir til uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega: ma'lum bir qolipga keltirish natijasida tilda doimo sodir bo'lib turadigan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik o'zgarishlardan yuzaga keluvchi buzilishlarning oldi olinadi.

O'tgan asrning 90-yillaridan e'tiboran o'zbek xalqi o'z tarixining yangi bosqichiga kirdi. Va millat holatining estetik ifodasi o'laroq istiqlol adabiyoti deb atalmish badiiy hodisa yuzaga keldi. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotning mantiqiy davomidir. Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti bir qator o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan badiiy-estetik hodisadir.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Mustaqillik tufayli millat ahli o'z ma'naviyatining asosi bo'lmish Qur'oni Karim bilan o'zbek tilida tanishish imkoniga ega bo'ldi. Bu hol millatning tafakkuri sog'lomlashuviga olib keldi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -B.87.

O'zbek xalqining tafakkuri tarixini, umumiy qilib, Qur'oni Karim tarjima qilinguncha va tarjima qilingandan keyingi davrlarga ajratish mumkin. Negaki, bu muqaddas kitobning o'zbekchaga ag'darilishi millatning e'tiqodi, dunyoqarashi va ma'naviyatida o'ziga xos inqilob yasadi. Tabiiyki, dunyoqarashi tozargan millatning adabiyoti ham yangilanadi. Shu tariqa, hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash samarasi sifatida istiqlool adabiyoti dunyoga keldi.

Mustaqillik davri adabiyoti hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, olam va odam ruhiyatiga mansub hodisalarga xilma-xil qarashlarning mahsuli bo'lgan adabiyotdir. Bu davrda olamning mavjudlik yo'sinini turlicha izohlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu hol milliy adabiyotimizning ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi. Ilmiy-estetik qarashlar xilma-xilligini yuzaga keltira boshladi.

Mustaqillik davri adabiyoti mustaqil o'zbek davlati badiiy adabiyotni sho'ro zamonida bo'lgani kabi o'z monopoliyasiga aylantirishga urinmadi. Shu bois ijod erkinligiga obyektiv sharoit yaratildi. Adabiyot ijodkorining ko'ngil ishiga aylandi va aylanmoqda.

Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Natijada, inson asosiy badiiy qadriyatga aylandi.

She'riyat bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakchi turi bo'lib qolmoqda. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro'z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirza, Tursun Ali, Ulug'bek Hamdam, Xosiyat Rustamova singari shoirlarning she'rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Biz ijodini o'rganayotgan taniqli ijodkor Ikrom Otamurod 1951-yil 5-mayda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumanidagi Kasbi qishlog'ida tug'ilgan. 1969-1974- yillarda ToshDUning jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Dastlabki she'riy to'plami – «Vaqt ranglari» (1982). Shundan so'ng shoirning «Janub qushlari» (1983), «To'rg'ayli manzillar» (1984), «Ufqlar orti bepoyon» (1987), «Ruhimning

qayg‘usi» (1995), «Sen» (1999), «Kanglum, o‘zing» (2002), «Tavr» (2005), «Muqaddar» (2013) kabi she‘riy kitoblari nashr etilgan.

Bir nechta dostonlar («Yarador umid otlari», 1986; «Uzoqlashayotgan og‘riq», 1990; «Sopol siniqlari», 1994; «Aning umidi», «Xaritaga tushmagan joy», 1992; «Tanazzul», «Iztirob», «Balki» va boshqalar) ham yozgan. M. Darvish, M. Bsisu, U. Uitmen, P. Neruda, O‘. Sulaymon, Y. Yevtushenko kabi shoirlarning she‘r va dostonlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Ko‘p yillar «Sharq yulduzi» adabiy oynomasida adabiy xodim, ayni paytda she‘riyat (nazm) bo‘limining mudiri lavozimlarida ishlab kelmoqda.

Ikrom Otamurod she‘riyati o‘ziga xos uslubga ega. Shoir o‘z she‘rlarining aksariyatiga maxsus nom bermaydi, falsafiy xususiyatga ega. Go‘yoki she‘rxon shoir qalbidagi she‘r mazmuni, uning nomini tushunib, topib uqib olsin uchun.

Ko‘pchilik she‘rlarining misralari qisqa-qisqa. Biroq bu qisqalikda tilning keng imkoniyatlarini qidirishga va topa bilishga harakat qiladi, mohirlik bilan uddalaydi.

Jahon she‘riyatida asosan to‘rtta she‘r sistemasi (tizimi) mavjud: sillabik, metrik, tonik, sillabo-tonik. Sillabik she‘r sistemasi, metrik she‘r sistemasi, tonik she‘r sistemasida, sillabo-tonik she‘r sistemasi Bundan tashqari, barmoq, aruz, erkin she‘r sistemalari ham mavjud.

Barmoq she‘r sistemasi misralarda bo‘g‘inlarning muayyan miqdoriga va izchil takroriga, bir xil turoqlarning o‘ziga xos tartibda guruhlanishiga asoslanadi. O‘zbek tilining ifoda va ohang imkoniyatlari, grammatik-stilistik qurilishi – barmoqni milliy she‘riy sistema sifatida bunyodga keltiradi.

O‘zbek she‘riyatida ikkinchi – aruz sistemasi ham bor. A. Fitrat yozganidek, aruz – arablarnikidir. Ulardan forslarga o‘tgan va arab aruzi tuzatilib, kamchiliklari to‘ldirilib, arab-fors aruzi holiga keltirilgan. Arab-fors aruzi O‘rta Osiyo xalqlari poeziyasiga ham kirgan.

Erkin (sarbast) she‘r sistemasi. Bu she‘r tizimida misralardagi bo‘g‘inlar miqdorining tengligi (barmoq), hijolarning cho‘ziq va qisqaligi (aruz) kabi qonuniyatlar hukm surmaydi. Unda bo‘g‘inlar miqdori ham, turoqlar (ruknlar)

tartibi ham, qofiyalanish va bandlar ham turli-tuman bo‘ladi, lekin musiqiylik-ohangdorlik doimo barq urib turadi. Shu sababli u erkin she‘r sistemasi deb yuritiladi.

Erkin she‘r sistemasi XXI asr jahon poeziyasida, jumladan, o‘zbek she‘riyatida ham yetakchilik qilsa ajabmas, chunki u „tezkor“ zamona kishilarining murakkab ziddiyatlarga to‘la, shiddatkor, betakror ruhiy dunyolarini borlig‘icha namoyon etishga qodir kuch – mo‘jizadir.

Biz ijodini o‘rganayotgan taniqli ijodkor Ikrom Otamurod barmoq vaznida ham, erkin (sarbast) vaznida ham birday ijod qilayotgan adibdir.

Shoir ijodida qisqa misralar asosida yozilgan “Taajjub shakllari” ham uchraydi. Ularning ko‘pchiligi, asosan, ikki, uch, to‘rt va undan ortiq misrali shakllar ham uchraydi:

*Sen lovullab turgan laxcha cho‘g‘,
qo‘llaringa olov sapchir
silasam agar.*

Yoki matematik amallar ham qatnashib qolgan misralar:

*Kelish –
ketishning qaytuvi...
Ketish –
kelishning qaytuvi...
Qaytuv=kelish+ketish...*

kabi misralar she‘rxonni beixtiyor mulohazaga undaydi.

Mustaqillik davri she‘riyatida o‘tkir gap aytish, o‘quvchiga aql o‘rgatish emas, balki inson ruhining murakkab manzaralarini aks ettirishga e’tibor kuchaydi. Odam sezimlarining qatlamlarini tadqiq qilish, tuyg‘uning boy va rangin qiralarini poetik kashf etishga urinish kuchaydi. Bu davr she‘riyati shakliy izlanishlarga boyligi bilan xarakterlanadi. Endilikda o‘zbek she‘riyati bilan tanishish uchun o‘quvchining qulog‘i va ko‘zigina emas, tafakkuri va tuyg‘ulari ham bir qadar zo‘riqishi, she‘rdan zavq olish, lazzat tuyish uchun mehnat qilishi lozim bo‘lib qoldi.

O'zbek she'rxonlarida birorta tinish belgisi ishlatilmagan tizmadan ham, murakkab mavhum obrazlilikka to'la she'riyatdan ham, tasavvufiy ilhom samarasi o'laroq dunyoga kelgan munojotlardan ham, poetik mini deyish mumkin bo'lgan ramziy ifodalardan ham, meditatif nazm namunalaridan ham ta'sirlanish, ularni baholay olish ko'nikmasi shakllanib bormoqdaki, bundan bir qadar qanoat tuyish mumkin.

Poetik matnning ilmiy-nazariy asoslari B.Umurqulov¹, I.Mirzayev² tomonidan ko'rsatib berilgan. Ma'lumki, poetik matnni til birliklarining ko'lamiga keng shakllari yuzaga keltiradi; badiiy-estetik g'oya poetik fonologik birliklar, poetik leksik birliklar, poetik morfologik birliklar, poetik sintaktik birliklar orqali shakllanadi. Demak, poetik matnga xos qat'iy strukturaviy talablar mavjud. "Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi"³. Tilning barcha sathlarida amal qiluvchi lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili badiiy matnning shakllanishida zaruriy vositalar sanalib, tejamlilik tilda ma'lum til birligini belgisiz qo'llash yoki qisqartirish natijasida yuzaga kelsa, ortiqchalik til birliklarini pleonastik qo'llash orqali yuzaga keladi.

XX asrning 30-yillaridayoq adabiy asar g'oyasi va u bilan bog'liq emotsional mazmunni ifodalaydigan til vositalarini ko'rsatish matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi ekanligini ta'kidlagan edi. Lisoniy tejamlilik va ortiqchalik ana shunday vositalar bo'lib, bu qonuniyatlarda asosida fonotsion va estetik kuch mavjud bo'ladi. Insonlarning o'zaro muloqoti natijasida axborot uzatishning ikki turi – implitsit va eksplitsit ifoda yuzaga keladi. Ulardan birinchisi fikrni yashirin, yopiq ifodalashi bilan tejamlilikka asoslansa, ikkinchisi aniq, ochiq ifodalashi bilan ortiqchalikka asoslanadi va ular bir-biriga zid qo'yiladi.

Tilshunoslar tomonidan "ongli iqtisod qilish", "lingvistik iqtisod", "ekonomiya prinsipi" "til ekonomiyasi" kabi terminlarning qo'llanishi tejamlilik

¹ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –Toshkent: Fan,1990.

² Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ...д-ра филол. наук. -Ташкент, 1992.

tamoyilining mohiyatini belgilaydi, chunki biror til birligining belgisiz kelishi yoki fonetik qisqaruvi bilan tejamlilik yuzaga keladi. Tejamlilik tamoyili lisoniy taraqqiyotda muhim o‘rin tutib, tilda optimallikka intilish talabi bilan yuzaga keladi. Ixchamlikka, qulaylikka intilish til birliklarini tejashga, bu esa o‘z o‘rnida fonotsion energiyaning tejalishiga, nutq a‘zolarining harakatini yengillatishga olib keladi. Poetik matnda bundan ko‘zlangan maqsad vazn talabi hamda poetiklikni, xoslikni ta‘minlash sababidandir.

Lingvistik iqtisod nutqiy aloqa jarayonida kam kuch sarf etishga, til birliklarini, birinchi navbatda, fonetik jihatdan o‘zgartirishga, qisqartirishga intilishdir. Bu hodisa til tizimining barcha sohalarida (fonetika, so‘z yasalishi, sintaksis va boshqalarida ham) uchraydi. Masalan, fonetikada so‘z boshida undoshning tushishi (yo‘qolishi): *uzum*<*yuzum*, *uzuk*<*yuzuk*; so‘z oxirida jaranglining jarangsizlashuvi: *kitop*<*kitob*; morfologiyada: *bora olaman* shaklining *borolaman* shakliga, *olib bor* shaklining *obor* shakliga kelishi kabilar¹.

Tilshunoslikda ortiqchalik atamasi ikki talqinga ega: 1) matnda hech qanday semantik yuk olmagan, ya‘ni biror vazifa bajarmagan til birligi; 2) adabiy meyorga nisbatan olinib, shartli ifodalanadi, ya‘ni mavjud semantikaning turli til birliklarida takrorlanib, ortiqcha ma‘noga egalik qilishi. Ortiqcha deb hisoblangan ma‘no fakultativ yoki tautologik xarakterda bo‘lmay, ma‘lum konnotativ, emotiv ma‘no ifodalashga xoslangan bo‘ladi. Ortiqchalik, birinchidan, til birliklarida doimiy o‘ziga xoslik sifatida, ikkinchidan, uslubiy ortiqchalik sifatida tushuniladi. Mazkur ishda ortiqchalikning ikkinchi xususiyatiga asoslanilgan. Ushbu termin rus tilidagi **избыточность**, ayrim Yevropa tillaridagi **pleonazm** terminlariga sinonim sifatida qo‘llangan deb qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi². Pleonazmda “bir xil yoki sinonimik ifoda vositalarining, ya‘ni til birliklarining semantik jihatdan takror (izbitochniy) holda bo‘lishi” mazmunni aniqlashtirish maqsadi bilan yuzaga keladi,

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zME, 2002. 40-b.

² Yusubova R. Hozirgi o‘zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida): Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. –T., 2011. 26 bet.

ko‘pincha stilistik figura sifatida badiiy mazmunni oshiradi. Shuningdek, pleonazm va tautologiya hodisalarining yaqinligi ularning bir xil hodisa sifatida qaralishiga olib kelgan o‘rinlar mavjud. B.Sheronovning fikricha, tautologiya pleonazmning bir ko‘rinishi bo‘lib, unda biror so‘z o‘z shakliiy xususiyatini saqlagan holda takrorlanadi holbuki tautologiyada so‘z shaklan takrorlanmay, mavjud fikr yangi informatsiyaga ega bo‘lmagan holda, boshqa so‘zlar bilan o‘rinsiz takrorlanadi: *tirik jon, so‘z so‘zlamog* kabi. Tautologiya yunoncha tautologiya< tauto< aynan, o‘sha+ logos – so‘z, ta’limot degan ma’noni beradi, aynan so‘z deyilganda, bir xil ma’noga ega ikki so‘z anglashinib, ularning birikuvidan stilistik xoslanish kuzatilmaydi, ya’ni “ma’no aniqlashtirishga yordam bermaydi”. V.I.Korolkov “tautologiya jins tushunchasi”, N.Mahkamov esa pleonazm jins tushunchasi, tautologiya tur tushunchasi ekanligini asosli ravishda ta’kidlaydi. G.Adjibekova pleonazmni yaqin ma’noli yoki sinonim so‘zlarning o‘zaro aniqlovchi-aniqlanmish munosabatida birikishidan yuzaga keladi, deb ko‘rsatadi, pleonazmning leksik ko‘rinishi uni tautologiyaga yaqinlashtiradi. Yuqorida tautologiyada biror tushunchaning boshqa leksemalar bilan takroran ortiqcha qo‘llanishi aytib o‘tildi. Biroq pleonastik qo‘llanish tilning barcha sathlarida kuzatiladi, bu xususda N.Mahkamov keltirgan aniq ta’rifga yuqorida to‘xtaldik. Lisoniy ortiqchalik badiiy matnda pleonazm ko‘rinishida amal qilib, mavjud ma’no til sathlarida uslubiy talab bilan qayta takrorlanadi, shunga ko‘ra pleonazm takror so‘zlardan ham farqlanadi. Takror so‘zlarda shakl aynan takrorlanib, o‘zaro tenglik munosabati amal qilsa, ortiqchalikning pleonastik ko‘rinishida takrorlanayotgan shakllar stilistik farqni yuzaga keltiradi; takror so‘zlar grammatik shakl sanaladi, pleonazm esa stilistikaning obykti hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ta’kidlanishicha, *pleonazm* atama sifatida “ortiqchalik” bo‘lib, bu esa lingvistik hodisa sifatida «keraksiz», «butunlay ortiqcha» degan ma’noni bildirmaydi¹. Nutqda bir-biriga yaqin ma’noli yoki

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zME, 2002. 54-b.

deyarli bir xil ma'noli birliklarning qo'llanishi, bir ma'lumotning birdan ortiq vosita bilan ifodalanishidir.

Bunda ikki holat kuzatiladi: 1) ayni informatsiyani bildiruvchi vosita (birlik)ning biri haqiqatda ham ortiqcha, keraksiz bo'lishi mumkin: *Ilgari odamlar mozoristonga g'oyat ehtirom... tavoze bilan munosabatda bo'lishgan: mozoriston* so'zidagi *-iston* qo'shimchasi ortiqcha, keraksiz; 2) bunday qo'llash **ma'lum maqsad** bilan, masalan, alohida qayd etish, ta'kidlash va shu kabi sabablar bilan bog'liq bo'ladi: *Shu desangiz, sal yorug'roqda Kelmoq uchun topolmadim vaqt* (H. Sharipov). *Sal yorug'roqda* birikmasidagi *sal* so'zi ham, *-roq* qo'shimchasi ham ozlikni, pastroq darajani bildiradi. Lekin bu misolda *sal* so'zini yoki *-roq* qo'shimchasini butunlay ortiqcha, keraksiz qo'llangan deb bo'lmaydi.

Ortiqchalik nutqda bir-biriga yaqin ma'noli yoki deyarli bir xil ma'noli birliklarning (ortiqcha holatda) qo'llanishi, bir informatsiyaning birdan ortiq vosita (birlik) bilan ifodalanishidir. *Ular bilan 12 yoshlar chamasidagi qizcha ham bor edi*. Bu misolda *chamasi* so'zi ortiqcha qo'llangan. Chunki yoshlar so'zidagi *-lar* qo'shimchasining o'zi chama-taxminni ifodalaydi (*12 yoshlardagi*). *Muzeyning kulolchilar tomonidan yaratilgan noyob buyumlar bo'limida rus va G'arbiy Yevropa zavodlari tayyorlagan mingga yaqin buyumlar bor*. *Kulolchilar* so'zidagi *-chi* affiksi ortiqcha, chunki *kulol* so'zining o'zi kasb egasini bildiradi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ta'kidlanishicha, *tavtologiya* (yun. *tautologia* < *tauto* – aynan o'sha + *logos*-eye). Bir fikr (mazmun)ni boshqa so'z yoki so'zlar bilan takroran ortiqcha ifodalash, so'zni ortiqcha ishlatish. Masalan, *gapirmoq* o'rnida *gap gapirmoq*, *tepmoq* o'rnida *oyoq bilan tepmoq* deb qo'llash tavtologiya hisoblanadi, chunki *gap*, *oyoq bilan* qismlari yangi informatsiya bermaydi (*gapirmoq*, *tepmoq* so'zlaridagi informatsiyani takrorlaydi) ¹.

Dunyo tilshunosligida tejamlilik tamoyilining fonetik-fonologik sathda mavjudligi XIX asrda qayd etilgan bo'lsa-da, XX asrning 50-yillarida fransuz tilshunosi A.Martine mazkur tamoyilning amal qilish qonuniyatlarini asoslab

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'zME, 2002. 56-b.

bergan. O'zbek tilshunosligida M.Mirtojiyev, M.Saitboyeva, I.Shukurov, N.Mahkamov, M.Misliddinova, M.Turobovalar tejamlilikning yuzaga kelish sabablari borasida fikr yuritadilar. Dastlabki tadqiqotlar XX asrning 70-yillarida A.Nurmonov, N. Mahmudov, 90-yillarda J.Eltazarov tomonidan yaratildi. J.Eltazarov so'z turkumlarida o'zaro ko'chishning tejamlilik tamoyiliga munosabati haqida ham fikr yuritadi. Ayrim adabiyotlarda morfologik (affiks) tejamlilik, sintaktik tejamlilikka to'xtalangan.

Turkologiyada dastavval G.F.Blagova ortiqchalikning pleonastik ko'rinishini tahlil etgan bo'lsa, R.Qo'ng'urov, M.Turobova bu xususda qisqa to'xtalganlar. Ayrim ishlarda fonetik ortiqchalik, ko'pgina adabiyotlarda va ba'zi ishlarda affiks ortiqchalikning amal qilishi xususida fikr yuritilgan. Lisoniy ortiqchalikni N. Mahkamov, B.Sheronov monografik planda tadqiq etishgan. Bu hodisalarning oppozitiv xususiyatlarini N.Mahkamov, O.Tojiyev qiyosan tahlil etganlar. Mazkur ishda poeziyada lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining stilistik, estetik qiymatini I.Otamurod lirikasi misolida tadqiq etish maqsad qilindi.

2-§. Poetik matnda fonetik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xususiyatlari

Mustaqillikdan so'ng jamiyatimizning barcha jabhalardagi o'zgarishlari kabi ilm-fan sohasida ham o'ziga xos o'zgarish, yangilanish, takomillashtirish kabi islohotlar amalga oshirildi va davom etmoqda. Jumladan ona tiliga e'tibor masalasini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

1989-yili 21-oktabrda «Davlat tili haqida» qonuni qabul qilingan edi. Mustaqillik sharofati bilan esa **Davlat tiliga** bo'lgan e'tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqei kengaydi. Respublikamizda O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida bir qancha qarorlar qabul qilindiki, ular qatorida 1995-yilning 21-dekabrda O'zbekiston respublikasining Yangi tahrirdagi 24 moddadan iborat «Davlat tili haqida» qonuni alohida ahamiyatga ega.

Ma'lumki, imlo lug'atlari adabiy til yozma shaklining meyorlashuvi hamda og'zaki nutq orasidagi bog'liqlik va yaqinlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Sal kam qirq yil avval O'zFA Til va adabiyot instituti xodimlari tomonidan nashr etilgan S.Ibrohimov, E.Begmatov, A.Ahmedovlarning "O'zbek tilining imlo lug'ati" (-T., Fan. 1976)da 65 000 dan ortiq so'z va so'z shakllari kiritilgan edi. Bu davr oralig'ida yana o'nlab imlo lug'atlari nashr yuzini ko'rdi. Lekin yuqoridagi kabi kirill alifbosiga asoslangan katta hajmli imlo lug'ati nashr etilmadi.

Lug'atlar haqida so'z yuritilganda, internet ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p nashr yuzini ko'rgan bozorgir lug'atlar sirasida imlo lug'ati oldingi qatorlarda turishi ko'p bora qayd etiladi. Lug'atlarning ahamiyati ularda tildagi eng so'nggi o'zgarishlar, endigina o'zlashgan neologizmlar aks etishi bilan qadrlanadi.

Jamiyat o'zgarishlari tildagi o'zgarishlarga ta'sir etib, bu jarayonda leksikamizga ham yangi so'zlarning kirib kelishi bilan bog'liq ayrim imlosi murakkab so'zlarning yozilishida ixchamlikka erishish, ayrim so'zlar imlosida ko'pchilikning qarashlarini hamda tilimizning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini hisobga olish kabilar muhim hisoblanadi.

Hozirgi paytda 2013-yil A.Madvaliyev, E.Begmatovlar tomonidan nashrga tayyorlangan, o'zbek tilidagi 85 000 dan ortiq so'z boyligini qamrab olgan "O'zbek tilining imlo lug'ati" (-T., Akademnashr, 2013) nashr etildi. Professor N.Mahmudov tahriri ostida nashr etilgan bu lug'at o'zbek tili leksikasida bir qator so'zlar imlosida keyingi yillarda ro'y bergan sezilarli o'zgarishlarni hisobga olgan holda, avvalgi imlo lug'atlariga qaraganda so'z va terminlarni kengroq aks ettirishi bilan farqlanadi.

Respublikamiz miqyosida Davlat tili haqida qabul qilingan dastur va qonunlarning mazmun-mohiyati maktabda o'zbek adabiy tilida go'zal va ravon so'zlashish va shu fikrni benuqson yozuvda ifodalashga qaratilgan. Shunday ekan, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda lug'atlarning o'rni muhim bo'lib, ularning aqliy salohiyatini belgilashda fikrlarni xoh og'zaki, xoh yozma shaklda

bo'lsin, mantiqan aniq va ravon, izchil hamda (imloviy) uslubiy kamchiliklarsiz ifoda etish mezon hisoblanadi.

Ma'lumki, poetik matnda tovushning tushirilishi yoki orttirilishidan ma'lum bir maqsad ko'zlanadi. Tovushlar nutqda qo'llanilishi jihatidan o'ziga xosliklarga ega, poetik matnda so'zning fonetik qiyofasi uning uslubiy xususiyatini ochishda yordam beradi. Fonetik tejamlilik so'zdan ayrim bo'g'inlarni yoki tovushlarni tushirish, ya'ni so'zni qisqartirish bilan yuzaga keladi, fonotsion energiyaning tejalishi so'zlash organlarining harakatini ham yengillashtiradi. Asosning shakliy tomonini tejashga intilish so'roq olmoshlarida ko'p kuzatilib, poetik matnda nima olmoshi *ne*, *na* arxaik shaklida qo'llanganda, vazn talabi (sillabik tenglik, qofiya talabi), talaffuz qulayligiga moslashtiriladi hamda ayrim o'rinlarda ekspressiv vazifa bajaradi. Sillabik tenglik deganda she'riyatda bo'g'inlar tengligi nazarda tutiladi. Tilshunoslikda *sillabema* (yun. syllabikos<syllabe) atamasi sifatida fonologik birlik bo'lgan bo'g'in tushuniladi.

Bu shakllar ba'zan kelishik qo'shimchalari bilan belgisiz kelib, fonetik-morfologik tejamlilikni yuzaga keltiradi: *ne topdingiz-nimani topdingiz* kabi. Shakl mazmun talabi bilan yuzaga keladi, *ne* shakli kontekstda *qanday*, *qancha* so'roq olmoshlarining semantikasini ifodalaydi. Masalan, *qancha* olmoshi o'rnida *ne* shakli misrada takror hamda yakka qo'llanganda, uch bo'g'inning tejalishidan nutqiy g'alizlikning oldi olinib, talaffuz ixchamlashtiriladi, qo'shimcha bo'yoq, bir xil shaklning takrorlanishidan eshitib ta'sirlanish kuzatiladi. Xususan, *ne* olmoshini *nimani* olmoshi o'rnida qo'llanishi shoir ijodida ko'proq uchraydi:

Kanglum, mendan bo'lak kiming bor sening,

kanglum, sendan boshqa mening kimim bor!

Ne desang deguvchi – yolg'izim mening,

ne aytsam aytguvchi – o'zing xokisor....

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 3-bet)

Tovushlarni doimiy ravishda fikrdan ayri olib bo'lmaydi, fikr tovush bilan bog'liq holda voqelanadi, tovushning qanday tovush bilan yondosh kelishi, tovush miqdorining kam yoki orttirilgan holda ifodalanishi uslubiy omillar bilan chambarchas bog'liq.

Ijodkor misralarida *qaysi* olmoshining *qay* shaklida kelib, *qayer* yoki *qanday* olmoshini ifodalagan o'rinlar ham talaygina:

*Kunning **qay** paytida,*

*tunning **qay** payti...*

(Otamurod Ikrom. *Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 32-bet*)

O'zbek tilida fuziya ko'rinishlari fonetik tejamlilikka ko'ra yuzaga chiqadi, masalan, *bo'la olmaymiz* fe'lida har ikkala so'zning boshida lablashmagan, orqa qator, keng unli – o tovushi talaffuz etilganda noqulaylik kuzatiladi, natijada fuziya talaffuz qulayligi nuqtai nazaridan eliziya ko'rinishida amal qiladi:

*Ikkimiz hech qachon **bo'lolmaymiz** do'st.*

Shu bo'ldi...

(Otamurod Ikrom. *Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 8-bet*)

Shoir misralarda ko'proq kesimlikni kesimlik shakllari bilan emas, ohang orqali ifodalash usulidan foydalanadi:

Seni ko'rsam dildan armon ketguvsi,

Sargardon bitguvsi, sarson

Shabiston yetguvsi, sha'bon yetguvsi,

Mening shohim, mening ohim, mening mohim

Ya'ni *ketguvsi, bitguvsi, yetguvsi* kabi so'zshakllarda *-dir* bog'lamasi ohang yordamida ifodalangan.

She'riy matn talabiga ko'ra ijodkor *mabodo* shart bog'lovchisini *mabod* shaklida ham qo'llaydi:

*Sog'inchimni so'ylasam **mabod**,*

sog'inib ketasan suygulim.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 8-bet)

Yetakchi va ko‘makchi fe‘llar birikuvi – harakat tarzi shakllarida ravishdosh shakllarining fonetik jihatdan tejalishi o‘ziga xos badiiylikka ega:

Kanglumba bir ufun yugurdi,

armonlarim sirildi – shaydo.

Angloldemadim *men-da bu sirni,*

huvaydo, huvaydo, huvaydo...

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 35-bet)

Shoir ijodida xalqona ohanglarni yorqin ifodalash, “she’rlarda o‘lchovni to‘g‘rilash”¹, talaffuzni yengillatish maqsadida yuqoridagi kabi nomeyoriy fuziyaning qo‘llanganligi fonetik tejamlilik mahsuli hisoblanadi. Shuningdek, *lekin (lek)*, *bilan (ila, -la)*, *uchun (-chun)* kabi yordamchi so‘zlarning moddiy ifodasida tovushni iqtisod qilish ixchamlik, qulaylik, bo‘g‘inlar tengligi nazarda tutiladi.

*G‘am **ila** suygaydir, bul makon, kelgil,*

So‘nggi g‘ami menman ochunning.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 43-bet)

Ortiqchalik tamoyilining boshqa ko‘rinishlariga nisbatan shartli ravishda so‘zda tovushni orttirib qo‘llashga fonetik ortiqchalik deb qaraldi. Shoir ijodidagi har bir fonetik ortiqchalikda ham pleonazmning *ta‘kid*, *kuchli ifoda*, atayin *e‘tibor qaratishga undash* kabi uslubiy maqsadlar mavjud. Bunday ortiqchalik esa shoirning maqsadiga muvofiq misralarda “qisqalikdan davomlilikka” tomon gradual shaklda oshib boradi.

Shamol... Men axir kutaman, o‘rtanib,

senn intiq kutaman, shamol.

¹ G‘ulomov A., Tixonov A., Qo‘ng‘urov R. O‘zbek tili morfem lug‘ati. -T.: O‘qituvchi, 1977. –B.367.

*Bag‘ringa bosaman hijroning,
dog‘laringni quchaman, shamol...*

Shamol-l...

Sha-mo-ol...

Sha-mo-ol...l...l...

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 39-bet)

Yoki infinitiv gap shaklidagi kengaygan birikma bilan ifodalangan holatlarda ham unlilar ortishi hodisasi kuzatiladi:

*Men sevgan so‘z – mangu sukutga ketib,
yoningda jimgina uz-o-oq tikilish...*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 36-bet)

Ma’lumki, qo‘sh undoshlar, ya’ni geminatalarda bir xil undoshli holat yuzaga keladi, bu hodisa dastlab birinchi bo‘g‘in fonetik tuzilishini saqlab qolish tendensiyasi natijasida hosil bo‘lgan¹, eski turkiy til davrida boshlangan undoshlardagi ikkilik (*iki-ikki* kabi)², keyinchalik adabiy meyorga aylangan. Poetik matnda geminatalar (undoshlar cho‘ziqligi)ning **yotar-r**, shuningdek, **tosh-sh-lari** kabi noadabiy formalari ma’noni kuchaytirish talabi bilan ortiqcha qo‘llanadi:

*Tungi daryo – uzala tushgan qilich.
Bo‘lak-bo‘lak tunning ko‘hna yostig‘i,
oqib yotar-r tosh-sh-lari...
bo‘lak-bo‘lak...*

A.Abdullayevning fikricha, geminatalarda bir undosh orttirishning o‘zi bilan ma’no kuchaytirilmaydi, balki qo‘sh undoshlilikni yuzaga keltirish bilan urg‘uni

¹ Nabiyeva D. O‘zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylik dialektikasining namoyon bo‘lishi. –T.: Sharq, 2005. –B.92.

² To‘ychiboyev B. O‘zbek tili tarixiy fonetikasi. –T.: O‘qituvchi, 1990. –B.62.

oldingi bo‘g‘inga ko‘chirish va o‘sha bo‘g‘indagi unlini kuchli talaffuz etish uchun zamin hozirlanadi,¹ geminatalar ot turkumiga mansub so‘zlarda ko‘proq qo‘llanadi: *tepa-teppa, oshiq-oshshiq, siri-sirri, haqi-haqqi* kabi. “Nutq zanjirida birin-ketin kelib, estetik vazifa bajaruvchi tovushlar...fonopoetik birliklar”² bo‘lib, masalan, “r” tovushi ikkilantirilganda, talaffuzda til havo zarbidan titrashi orqali ohangdorlik(evfoniya) yuzaga keladi. *EVFONIYA* [yun. euphonia < eu – yaxshi + phone – ovoz] ohangdorlik; nutqda kuchli ohangdorlik tug‘diruvchi turli fonetik usullar, holatlarni ifodalaydi.

“Fonografik jihatdan so‘zdagi bir unli yoki bir undoshning orttirilishi u ifodalab kelayotgan ekspressiv bo‘yoq miqdorini belgilaydi”. Masalan, “Sen” dostonida **gulzor** so‘zi o‘rniga uslubiy talab bilan **guluzor** shaklda ishlatilgan. Bu esa she’rxonni tajnis san’ati kabi ma’no farqlashga majbur qilishi tabiiy:

*Nigohim ko‘shkida erkalab –
yeldirim sabolar **guluzor**.*

(*Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 35-bet*)

Fonikada misralardagi unli yoki undosh tovushlarning tuzilishi, konstruktiv vazifasi o‘rganiladi. Bu vazifa fonetik ortiqchalikka ham daxldordir, sababi she’riy ritmda cho‘ziqlik birlamchi talablardan biri bo‘lib, talaffuzga asoslangani boisidan, fonostilistik ahamiyatga egadir. Ba’zan so‘zda uning arxaik shaklida mavjud bo‘lgan tovushni qo‘llash, ya’ni variantdorlik orqali eshitib ta’sirlanish yuzaga keladi, bu variantlar hozirgi o‘zbek adabiy tili bilan nisbatlaganda fonetik ortiqcha sanaladi: *shu/ shul, o‘shalar/ o‘shal, bu/ bul, u/ ul* kabi. Yordamchi so‘zlarda: *balki/balkim, agar/magar* tarzida:

*Hurillab essa **gar** nogahon,
qadrning parivash nasimi.
Kanglum ko‘tarilar,*

¹ Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. -T.: Fan, 1983. –B.11.

² Tursunova O. Fonopoetikada qofiya masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. -T., 2009. -№1. –B.104.

*ko 'tarilar ayon,
eshitsam Qashqadayro sasini.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 5-bet)

Shuningdek, ayrim o‘rinlarda **tomon** ko‘makchisi o‘rnida **tovun** ko‘makchisi ham ishlatiladi.

*Kun og‘di. Kechga **tovun**
esdi xush nasim.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 29-bet)

E’tibor berilsa, “fonemalarni eshitib his qila olish”¹, ya’ni perseptiv aspektda o‘rganish orqali tovush xarakteri aniqlanadi, bu xususiyat fonetik ortiqchalik orqali amalga oshirilar ekan, poetik matnda tovush tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog‘lanib uslubiy ahamiyatga ega bo‘ladi.

¹ Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. -T.: O‘qituvchi, 1992. -B.56.

IKKINCHI BOB. Leksik-semantik tejamlilik va ortiqchalik hamda uning uslubiy xususiyatlari

1-§. Poetik matnda leksik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi

Fan hamisha rivojlanish va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko‘rilmagan darajada jadal tus oldi. Bunga, bir tomondan, dunyo miqyosidagi globallashuv, fanlararo integratsiyaning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar amaliy qiymatining o‘ssishi ta’sir qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy manfaatlarining kuchayishi, geopolitik siyosat qamrovining kengaya borishi kabi qator omillar jiddiy sabab bo‘lmoqda¹.

O‘tgan asrning yigirmanchi yillaridan boshlab o‘zbek olimlari badiiy asar tilini o‘rganish bilan shug‘ullana boshladilar, natijada tilning kommunikativ xususiyatlari bilan bir qatorda, ekspressiv xususiyatlarini o‘rganishga ham jadal kirishildi. Ma’lumki, badiiy matnning bir ko‘rinishi bo‘lgan poetik matnda fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik shakllarni nutqiy ixchamlikka asoslangan holda tushirib qoldirish yoki konnotativ ma’no ifodalash maqsadida orttirib qo‘llash yetakchi sanaladi, chunki bunday nutq ohang jihatdan ma’lum bir tartibga solingan, hayotga munosabatni his-tuyg‘ular vositasida ifodalaydigan, o‘quvchiga estetik ta’sir etadigan, muayyan ritmik qurilishga ega bo‘lgan ijod mahsulidir. Poetik matnda til birliklarini o‘rinli joylashtira bilish muhim ahamiyatga egadir, zero, xoh adabiy til, xoh badiiy til bo‘lsin, agar meyor bo‘lmasa, g‘alizlik yuzaga keladi. Nutqda til birliklarini meyordan ortiq holda tejash yoki ortiqcha qo‘llashda ham bu holatni kuzatish mumkin.

Poetik matnda tejamlilik tamoyilidan fonotsion energiyani tejash orqali ixcham va lakonik ifoda, uslubiy ravonlik, vazn talabiga moslash, ayrim o‘rinlarda stilistik funksiya bajarish ko‘zda tutilsa; lisoniy ortiqchalikdan orttirib yoki ko‘p(to‘liq) ifodalangan shakllar orqali konnotativ ma’no ifodalash nazarda

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent:Ma’naviyat, 2008. –B. 83.

tutiladi. Demak, poetik matnda til birliklarini tarkibdan tushirish yoki ortiqcha qo'llashdan ko'zlangan maqsad qay darajada ekanligi muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida qator ilmiy manbalarda ortiqchalik va tejamlilik tamoyili xususida fikr yuritilgan. Muayyan ijodkorning tildan foydalanish, til birliklarini tanlash va qo'llash mahoratini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar anchagina, biroq tilshunosligimizda hozirga qadar lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyili stilistik nuqtayi nazardan o'rganilgan biror tadqiqot kuzatilmaydi. Poetik matnda lisoniy tejamlilik va ortiqchalik tamoyilining yuzaga kelishidan ko'zlangan maqsadni bu hodisaning stilistik funktsiya bajarishga asoslangani bilan belgilagan holda, asosiy e'tibor mazkur oppozitiv hodisalarni o'rganishning lisoniy-uslubiy tahliliga qaratilgan.

Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy birliklarni tejab qo'llash nutqiy ixchamlik, mazmunni oson tushunish, vazn o'lchoviga muvofiqlik, bir xillikka yo'l qo'ymaslik va ayrim o'rinlarda konnotativ ma'no ifodalash uchun bo'lsa; lisoniy ortiqchalikning uslubiy maqsadni nazarda tutgan holda, shakllarning ortiqcha yoki ko'p qo'llanishi bilan yuzaga kelishini ko'rsatib berishdan iborat.

Tilshunoslikda ko'chish keng tushuncha bo'lib, masalan, substantivatsiyada leksema tejaliib, qisqa va lo'nda ifoda yuzaga keladi, shu nuqtai nazardan, bu hodisaga leksik tejamlilik sifatida qaraldi. Ma'lumki, "sifat so'z turkumida baholash munosabati imkoniyatlari keng ekanligi namoyon bo'ladi"¹, odatda, baho munosabatlari *yaxshi* va *yomon* belgilari ostida birlashadi, xalq maqollarida *yaxshi* va *yomon* leksemalari shaxsga ko'chirilib, belgi uning o'zida namoyon bo'ladi: *Yaxshi yaxshiga yondashtirar, yomon yo'ldan adashtirar* kabi. Sifatlarning otlashuvi uning boshqa sifat semantikasini ifodalashiga sabab ham bo'ladi, masalan, poetik matnda *qora*, *ola*, *og'ir* sifatlari xarakter-xususiyat ifodalovchi *yomon* sifatining ma'nosini ifodalaydi, natijada sifatlarning denotativ ma'nosi kuchsizlanib, konnotativ ma'nosi birinchi planga chiqadi:

Uzoqlarda ikkita qora

¹ Pardayev Z. Nutq innovatsiyasi va ularda baho munosabatining ifodalanishi // O'zbek tili va adabiyoti. -T., 2009. - №1. -B.106.

ketib borar...

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 46-bet)

O‘rni bilan substantivatsiya hodisasida uzoq – ravish leksemasi ham qo‘llanib, ma’lum bir so‘zlar tejashga erishilgan:

*Uzoqning gapi – kutilmagan xabar,
shoshirib qo‘yadi birdan.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 20-bet)

Badiiy uslub uchun ahamiyatli sanalgan troplar guruhiga kiruvchi metafora, metonimiya va sinekdoxada ham tejamlilikning leksik holatda sodir bo‘lishini kuzatish mumkin. Masalan, metonimiya va sinekdoxada biror bo‘lakning tushib qolishiga qaramasdan ma’noning to‘liq anglashilishi matnda fikrni ixcham, lo‘nda ifodalab berish ehtiyojiga to‘la mos kelib, o‘ta qisqalikka intilish yaxlit bir tushunchaning ixcham ifoda orqali shakllanishida aniq ro‘yobga chiqadi. Y.A.Zemskaya metonimiyaning tejamlilikka aloqadorligi sababini unda so‘z birikmasi o‘rnida so‘z qo‘llanishi bilan izohlaydi.

Quyidagi misralarga e’tibor qarataylik:

*Tahqirga chidolmay baqirar eshik:
tashqariga uchib chiqar **xiyonat**,
ichkarida hiqillaydi **pushaymon**.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 20-bet)

Leksik tejamlilik yo‘li bilan **xiyonat**, **pushaymon** so‘zlari metonimiyani yuzaga keltiryapti. Bu esa ijodkor so‘zning semantik qamrovini chuqur bilishini ko‘rsatadi. “Xiyonatkor shaxs”, “qilmishiga pushaymon inson” ma’nosi metonimiya yo‘li bilan xiyonat, pushaymon nomiga ko‘chirilib, tushirilgan leksema hisobiga nutqiy qulaylik yuzaga kelgan.

So‘z ma’nosininig ko‘chish usullari hisoblangan metafora, metonimiya va sinekdoxaning yangi ma’noning hosil bo‘lishida “tasvirlanayotgan predmetning muhim tomonini qisqa, tejab ifodalashga yordam berishi”□ muhim ahamiyat kasb etadi.

Endilikda she'rxonlik ko'ngil ochar mashg'ulot bo'lmay qoldi. She'r bilan tillashadigan o'quvchining tafakkuri ham, qulog'i ham, ko'zi ham, hatto tuyg'ulari ham bir qadar zo'riqishi, she'r o'qiyotganda faqat zavq va lazzat tuyibgina qolmay, mehnat qilishi ham lozim bo'lib qoldi.

Milliy poeziyamiz tarixida ikkigina so'zdan iborat she'r hech qachon bo'lmagan. Faxriyor shunday she'r yozdi. Quvonarlisi shundaki, bu ikki so'z yordamida atama yasalmagan yoki axborot berilmagan, balki o'ziga xos musiqaga ega, muayan kayfiyat ifodalay oladigan, o'qiganga o'zgacha ruhiyat baxshida qiladigan tugal she'r yaratilgandir:

oy

bolta

She'r bosh harf bilan yozilmaganligi, unda hech qanday tinish belgisi ishlatilmaganligi muallifning oliftaligi yoxud inijqligidan emas. E'tibor qiling, ajdodlarimiz minglab yillar davomida tinimsiz she'rlar bitib kelishgan. Ular o'quvchiga ishonishgan. O'tmishdagi shoirlar zamr o'rinni belgilash, alohida e'tibor qilinadigan joyni topish ixtiyorini she'rxonning o'ziga qoldirishgan. Faxriyorning she'ridagi ikki so'z, tabiiy ravishda, o'quvchining e'tiborini tortadi, uni bu so'zlar ustida o'ylab ko'rishga, unga turli aspektlarda yondashishga undaydi. Birov oyni boltaga, boshqa birov boltani oyga mengzaydi. Sehrli bu so'zlar sabab kimdir siqilganlikni, ruhini oyning boltasi qiymalaganini, boshqa-si esa sokinlikni oy bolta ruhiyatiga qo'riqchi bo'lganini tuyadi.

Ona tili darslarida lug'atlar bilan ishlash bolalar tafakkurini o'stirishda muhim bo'lib, ayniqsa, sinonimlar lug'ati bilan ishlash darsning qiziqarli va induktiv usulda tashkil qilish uchun qulay mavzu hisoblanadi. Tilda bir so'z ko'p ma'noni anglatishi bilan birgalikda bir necha so'z bir ma'noni anglatishi ham mumkin. Masalan, *osmon, falak, ko'k, samo, gardun; yurak, qalb, dil, ko'ngil* kabi. Ikki yoki undan ortiq so'z bir tushunchani bildirsa, sinonimlar (ma'nodosh) so'zlar hisoblanadi.

Sinonimiya – bir xil nomga egalik quyidagilarga bo'linadi:

1) lugʻaviy (leksik) sinonimiya, yaʼni soʻzlar maʼnodoshligi: ish, yumush; gapirmoq, soʻzlammoq;

2) iboralar (frazologik) maʼnodoshligi: boshi osmonga yetdi, terisiga sigʻmadi;

3) qoʻshimchalar (affiksial), yaʼni grammatik shakllar maʼnodoshligi: -yap, -yotir, -moqda kabi.

Tilshunoslikning sinonimlarni oʻrganuvchi boʻlimi sinonimika deyiladi. Leksikologiyada faqat lugʻaviy (leksik) sinonimlar oʻrganiladi. Oʻquvchilarga sinonimiya mavzusi, avvalo, soʻzlar maʼnodoshligi asosida oʻrgatilishi, undan soʻng iboralar va qoʻshimchalar maʼnodoshligining oʻqitilishi maʼqulroq yoʻl sanaladi. Til leksikasida ham ortiqchalik kuzatilib, leksik ortiqchalik sinonim yoki maʼno jihatdan yaqin soʻzlar leksik birlik sifatida ortiqcha qoʻllansa yuzaga keladi. Birlashtiruvchi semema aynan boʻlsa-da, sinonim leksemalar ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalashi (maʼno ottenkalari), stilistik xoslanishi, maʼnoviy boʻyoqdorlik darajasiga koʻra oʻzaro farqlanadi, “sinonimlar nutqda qaytariqlarga yoʻl qoʻymaslik, nutqni ravon tuzish imkonini...beradi”¹. “Sinonimlar vositasida tasvirlanayotgan davr xususiyatlarini toʻlaroq aks ettirish, turmush voqealarini yanada aniqroq tasvirlab berish... mumkin”²:

Bu kech tun choʻzildi. Oh, yaldomidi

yulduzlar oyogʻiga yiqilgani?!

Azobmi, qiynoqmi yo aldovmidi

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 22-bet)

Ijodkor boʻ oʻrinda ortiqchalikning ikkinchi bir koʻrinishini – leksik ortiqchalikni qoʻllagan.

Shoir ijodi uchun leksik tejamlilik hodisasi dasturulamaldir:

Sen - yolgʻizlik kabi jimjit.

Sen - yolgʻizlik kabi goʻzal...

Ssn - yolgʻizlik kabi gʻamgin..

¹ Oʻzbek tili leksikologiyasi. -T.: Fan, 1981. -B.244.

² Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. -T.: Fan, 1976. -B.18-19.

Sen - yolg'izlik kabi yolg'iz...

Sen - yolg'izlik kabi.

Sen - yolg'izlik...

Sen - ...

Ajratilgan bo'laklar lisoniy ortiqchalik hodisasi doirasi o'rganiladi. Gap tarkibidagi ma'lum bo'lakning ma'nosini ta'kidlab, izohlab keluvchi, boshqa bo'laklardan to'xtam va ohang jihatidan ajralib turuvchi bo'laklarga ajratilgan bo'laklar, shunday bo'lakli gaplarga esa ajratilgan bo'lakli gaplar hisoblanadi.

Ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplar mazmunan murakkablashadi. Gapning asosiy qismi ifodalagan axborotga ajratilgan bo'lakdan anglashilgan qo'shimcha axborot qo'shiladi. Masalan, *Tursunali akaga, shunday katta olimga, kuyov bo'lish hazil gap emas. (O'. Usmonov)* Bu gapda birinchi axborot *Tursunali akaga kuyov bo'lish hazil gap emasligi* gapning asosiy qismi orqali, ikkinchi axborot esa *Tursunali akaning katta olimligi* ajratilgan bo'lak orqali ifodalanadi.

Ajratilgan bo'laklar ikki xil vazifani bajaradi: ma'lum bir bo'lak ma'nosini ta'kidlash, bo'rttirish va ma'lum bir bo'lakning umumiy ma'nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma'nosini tushuntirish. Ajratilgan bo'lakning bu ikki xil vazifasi uning ajratish usuli orqali ham bilinib turadi.

Begali Qosimov qizini uzatdi,

*Qashqadayroga – **tug'ilgan yurtiga.***

To'ng'ich qizini,

***suyukli qizini** kuzatdi –*

yorishdi kanglining o'rtigi...

Bu o'rinda ajratilgan bo'lak hisoblangan ***tug'ilgan yurtiga, suyukli qizini*** so'zshakllari o'zidan oldin kelayotgan bo'lak ma'nosini *ta'kidlash, bo'rttirish* hisobiga ortiqchalik kasb etgan. Misrada ishlatilgan *Qashqadayro* so'zi esa metateza hodisasi sifatida ijodkor tug'ilib o'sgan hudud tilini – shevasini eslatgan holda halqchillik kasb etgan.

Ayrim o‘rinlarda misralardagi so‘z birikmasi yoki fikr ifodalovchi sodda yig‘iq gaplar ham leksik-semantik ortiqchalik kasb etgan. Bu ortiqchalik esa she‘rning badiiy-uslubiy vazifasiga jarangdorlik kasb etgan.

Kasbi kuloli yasagan ko‘zaning

suvlari ziloldir,

suvlari zilol.

Ko‘milgan ruhimning o‘zani –

kesilgan hilol.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 45-bet)

Ijodkor ko‘p o‘rinlarda ot, sifat, fe’llarning sinonimik qatoridagi uch so‘zni ketma-ket pleonastik qo‘llaydi, natijada fikrni aniqlashtirish, ta’kidlash, konnotativ vazifa bajarish, takroriylikka yo‘l qo‘ymaslik maqsad etiladi. Masalan, sifat sinonimlarda:

Yo‘llar-da yonidan yugurib o‘tdi,

*yo‘lovchilar o‘tdi **beparvo, befarq.***

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 23-bet)

Ayrim misralarda leksik ortiqchalik birinchi misradan ikkinchi misragacha davom etib boradi. Bu ortiqchalik so‘z takrori, shuningdek, sinonimik munosabat doirasida ham “ma’noni kuchli ifodalash” maqsadida amalga oshiriladi.

Shamol... Shoshma. Shoshmagin. To‘xta,

hech bo‘lmasa, to‘xta bir fursat.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 23-bet)

Gaplar o‘z bo‘laklarining to‘la ifodalangani yoki ifodalanmay qolganiga (tushib qolganiga) ko‘ra to‘liq gaplar, to‘liqsiz gaplarga bo‘linadi:

Biror bo‘lagining ifodalanmaganligi sezilmaydigan, fikr ifodalash uchun zarur bo‘lgan hamma bo‘laklari saqlangan gaplar to‘liq gaplar deyiladi: *Shoira o‘zi yozgan she‘rni o‘qidi.*

Qiyoslaylik: – *Shoira nimani o'qidi?*

– *O'zi yozgan she'rni.* (Bu to'liqsiz gap)

Suhbat nutqida, matn ichida qo'llanilib, biror bo'lagi tushirilib qoldirilgan va u nutq sharoitidan anglashilib turadigan gaplar to'liqsiz gaplar deyiladi. To'liqsiz gap uchun zaruriy umumiy qoida, qonuniyatlar xos emas. Qaysi bo'lakning qoldirilishi kerakligi va qaysi bo'lakni tushirish mumkinligini faqat nutq sharoiti belgilaydi.

Misol uchun: – Arizangizni yacheykada ko'rib chiqamiz! – Qachon? – Xohlasangiz, ertaga. – Tezroq ko'ringlar, Ne'mat aka, iltimos qilaman. Borganingizda Saidova bilan uchrashdingizmi? – Uchrashdim. – Qayerda? – Bir juvonnikida. Sherali qani? – Ichkarida. Ilgari qayerda ishlagan edilar? – Dastavval Surxondaryoda, keyin Qarshi cho'lida kabi gaplar ham to'liqsiz fap hisoblanadi.

To'liqsiz gaplarda quyidagi gap bo'laklari tushirilishi mumkin:

1. Kesim va unga oid so'zlar: – *Seni qurol ushlashga qaysi nomard majbur qildi?* – *Vijdonim, xalqimning amri.* 2. Ega: – *Siz she'r ham yozyapsizmi, Oydin?* – *Yozyapman.* 3. Ega va kesim: – *Ishni men kimdan qabul qilib olayotibman?..* – *Byuro a'zosidan...* 4. Ikkinchi darajali bo'laklar: – *Kim muzeyga bormoqchi?* – *Hammamiz boramiz.*

Dialogik nutqda fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirok eta bormaydi. So'zlashish jarayoni doimo ixchamlikka, ortiqcha so'zlardan qutulishga amal qiladi. Shuning uchun so'zlashish jarayonida oldingi gapdan yoki so'zlashish vaziyatidan bilinib turgan so'zlar ko'pincha ishlatilmaydi, lekin uning mazmuni oldingi gapdan va nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan,

– *Isming nima?*

– *Yodgor.*

Keyingi gapda *mening ismim* so'zlarining qo'llanilishi ortiqcha. Chunki uning mazmuni yuqoridagi gapdan bilinib turadi.

Shoir she'rlarida to'liqsiz gaplar go'yo uning orzu-armonlari bilan qorishib ketadi:

Yellar pichiridan payg'omlar kutib,

Ishonch shevasiga bag'rini tutib,

Qamarsiz tun o'tib, shamssiz kun o'tib,

Sog'inib-sog'inib bukilar dilim.

Men seni o'ylayman... endi

qoldirganing menga o'y, xayol.

Bog'larimga tiramoh indi,

tiramoh silkitadi yol.

Yoki she'riyatdagi mukarrar usuli ishlatilgan misralar ham fikrimizni dalillaydi:

Sog'inar... va yana xayolning

gurungin subhida shabiston.

Qirq o'rim zulflari hilolning

tobiston, tobiston, tobiston...

Umuman olganda, ijodkor yaratgan parafrazalar muqobil leksema bilan pleonastik qo'llanganda stilistik yoki ekspressiv vazifa bajaradi, shuningdek, yordamchi so'zlarning sinonimlari bilan pleonastik qo'llanishiga shartli ravishda leksik ortiqchalik sifatida qarash mumkin.

2-§. “Poetik matnda semantik ortiqchalik hamda uning uslubiy xususiyatlari”

Har bir davlat siyosatining muhim umumiy davlat ramzlari mavjud bo'lib, davlat tili masalasi ham odatda shular qatorida turadi.

O'zbekiston respublikasida davlat tiliga nisbatan e'tiborning kuchayishiga ehtiyoj bir necha yillar avval yuzaga kelgan bo'lsa-da, rasmiy ravishda bu masalaning kun tartibiga qo'yilishi 1989- yili 21- oktabrda «Davlat tili haqida» qonuni qabul qilinishi bilan belgilanadi. Mustaqillik sharofati bilan **O'zbek tili - Davlat tiliga** e'tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqei kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida bir qancha qarorlar qabul qilindi.

1995- yilning 21- dekabrda O‘zbekiston respublikasining Yangi tahrirdagi 24 moddadan iborat «Davlat tili haqida» qonuni (yangi tahrirda) qabul qilindi¹. «Davlat tili haqida» qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir, deyilgan bo‘lsa, konstitutsiyamizning 4-moddasida bu fikrga qo‘shimcha ravishda, ... Til bu – dalatning ramzi, millatning ko‘rki va faxridir. Tilning nufuzi, ahamiyati Konstitutsiyamizda sanab o‘tilgan bayroq, gerb, madhiya singari davlat ramzlari bilan yonma turadi”, deb ta’kidlangan.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi jamiyatda a’zolarining tilga bo‘lgan munosabatini oshirish bilan birga ularning zimmasiga ko‘plab vazifalarni belgilab berdi. Ular sirasiga quyidagilarni aytish mumkin:

1. Muassasalarda davlat tilida ish yuritilishi, o‘zaro muloqot o‘zbek tilida bo‘lishi, milliy tilimizga bo‘lgan hurmat saqlanishi, rasmiy-idoraviy ish hujjatlarining o‘zbek tilida yuritilishi.

2. Radio-televideniya ko‘rsatuvi va eshittirishlarini, vaqtli matbuot, gazeta-jurnallar noshirligini milliy til masalasi asosida chiqishini ta’minlash.

3. Darslik va o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlar, adabiyotlar, ko‘rgazmali qurol, turli plakatlar tayyorlanishini ham davlat tili masalasiga mos ravishda bo‘lishini ta’minlash... kabi masalalarni kun tartibiga qo‘ydi.

Shuningdek, bu qonun O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay, yoki xusumat bilan qarash taqiqlanishi, fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘lishi kabi masalalarni to‘g‘ri hal etdi.

Ta’kidlash joizki, tejamlilik hodisasi so‘zning shakliy tomoni bilan bog‘liq bo‘lib, tejamlilikda til birliklarini tejash-qisqartirish, tushirib qoldirish orqali kam fonotsion kuch sarf etishga intilinadi, ya’ni tejamlilik ma’lum til birligining moddiy ifodalanmasligi bilan yuzaga keladi. Tilda semantik tejamlilik deb ajratish

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida” qonuni (yangi tahrirda). 1995 yil 21 dekabr.

mantiqan xato, tejamlilik fonetik, leksik, grammatik shakllarda mavjud bo‘lib, semantik tejamlilikni shaklan ifodalab bo‘lmaydi.

Semalar takrori natijasida yuzaga kelgan ortiqchalikka semantik ortiqchalik deyiladi, bunda turli so‘z turkumlariga kiruvchi hamda bir-biri bilan mazmuniy munosabatda bo‘luvchi so‘zlar sinfi turkumlararo leksik maydonni tashkil etadi va takror semalar o‘zaro tobelik munosabatida birikadi. Semalarning bir arxisema asosida mazmuniy maydonni hosil qilishi natijasida arxisemaning xususiy semalari reallashtiriladi va konkretlashtiriladi, tanlangan semalar takrorida fikrni ta’kidlash, bo‘rttirish, emotsional-ekspressivlik kuzatiladi. Masalan, ba’zan shaxs oti ravish yoki sifat oldidan uning belgisini anglatuvchi so‘z keladi:

*Qulf uzoq kutdi, **ko‘p** uzoq kutdi,
o‘tganga, qaytganga termuldi ilhaq.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 23-bet)

Bunda arxisemaga atributiv birikkan xususiy sema semantik ortiqchalik mavqeida hisoblanadi.

Arxisema atamasi *integral sema*, *umumiy sema* terminlari bilan ham ishlatiladi. Umumiy sema – bu bir semantik maydondagi sememalarning tutashtiruvchi semasidir. Masalan, *novcha*, *baqaloq*, *cho‘ziq* kabilardagi «meyor» semasi; *chopmoq*, *oqmoq*, *sakramoq* kabilardagi «harakat» semasi.

Poetik matnda semantik ortiqchalikning obyektli yoki relyativ shakllari (*ko‘zidan yosh oqardi*, *tomirda qon bo‘lib oqib*, *qo‘lda qurol bilan jang qilmoq*), atributiv shakllari (*qirmiz* yoki *alvon qon*, *qora tun*, *norasida go‘dak*, *yolg‘iz oy*), izohlovchi-aniqlanmish konstruksiyasiga o‘xshash shakllari *sen o‘zing*, *bizning barimiz*, *bularning bari*) tez-tez uchrab turadi.

*Kanglum, mendan bo‘lak kimning bor sening,
kanglum, sendan boshqa mening kimim bor!
Ne desang deguvchi – yolg‘izim mening,
ne aytsam aytguvchi – o‘zing xokisor....*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 3-bet)

Undalma sifatida *kangulga* murojaat qilingan misralar inversiya asosida gap bo'laklari o'rinlashgan. O'zbek tilida gap bo'laklarining joylashish tartibi asosan erkin bo'lsa-da, ular gapda ma'lum grammatik qoidalar asosida o'rinlashadi. Odatda, gapda ega va unga bog'langan bo'laklar oldin, kesim va unga bog'langan bo'laklar keyin joylashadi, ba'zan aksinchasi ham bo'ladi.

Misra *Kanglum, mendan bo'lak sening kiming bor,*

kanglum, sendan boshqa mening kimim bor! ko'rinishida o'rinlashadi.

Bu o'rinda **sening kiming, mening kimim** birikmalarida (**sening, mening**) semantik ortiqchalik mavjud bo'lib, bu ortiqchalik ta'kid, bo'rttirish ma'nolarida uslubiy ma'no kasb etgan.

Eganing ko'proq gap boshida, kesimning, asosan, gap oxirida (*Men **keldim***), holning kesimdan oldin (**ohista** gapirdi), to'ldiruvchining kesimdan oldin (**she'rni yod oldi**), aniqlovchining egadan oldin (**qizil gul, do'stimning akasi**) joylashuvi odatdagi, me'yoriy tartibdir. Lekin nutqda doimo ham gap bo'laklarining odatdagi tartibi saqlanavermaydi, gapdan ko'zda tutilgan umumiy fikrga qo'shimcha ma'no, uslubiy yuk berish uchun tartib o'zgartirilishi mumkin.

Gap bo'laklarining odatdagi va o'zgargan tartibining nutqda o'z qo'llanish o'rinlari bor. Odatdagi tartib ilmiy asarlar uslubi uchun mos bo'lsa, o'zgargan tartib og'zaki nutq uchun va badiiy (ayniqsa, she'riy) nutq uslubi uchun xos.

Ma'lumki, atamalar hosil qilishda ham tilning tejam qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Tilda yasama so'z tarkibida birin-ketin kelgan ikkita bir xil bo'g'indan birining tushirib qoldirilishi gaplologiya hodisasi hisoblanadi. Bu hodisa ham ko'proq ixchamlashtirish, energiyani tejash asosida sodir bo'ladi. Masalan, *tragikomediya* < *tragikokomediya*. Bu so'zning tarkibida ikkita bir xil bo'g'in («ko» – uchinchi bo'g'in va «ko» – to'rtinchi bo'g'in) birin-ketin kelganligidan talaffuzda ulardan biri tushirib qoldirilgan va so'zning ana shu ixchamlashtirilgan shakli adabiy til uchun me'yorbo'lib qolgan. Bunday hodisa *mineralogiya* < *mineralo/ogiya*, *morfologiya* < *morfofonologiya* so'zlarida ham kuzatiladi.

Davlat tili haqida qabul qilingan dastur va qonunlarning mazmun-mohiyati shu bilan belgilanadiki, maktabda ona tili o'qitishning bosh maqsadi adabiy tilda go'zal va ravon so'zlashishni va shu fikrni benuqson yozuvda ifodalashni o'rgatishdan iboratdir. Bu esa o'quvchilarning turli o'quv lug'atlari ustida doimo ishlab borishi lozimligi talab etadi.

Lug'atlar ichida o'quv lug'atlari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv lug'atlari maktab dasturi bilan chambarchas bog'liqdir. Shunga muvofiq lug'atlar ta'lim jarayonining ajralmas qismi, darslikdan keyingi ikkinchi ona tili darsligidir.

Ma'lumki, mustaqillikka qadar maktab o'quvchilari uchun sanoqli o'quv lug'atlari mavjud edi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek o'quv lug'atchiligiga doir ko'pgina ijobiy ishlar olib borildi. Bular sirasiga Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida professor-o'qituvchilarining maktab o'quvchilari uchun tuzgan o'ndan ortiq o'quv lug'atlarini keltirib o'tish mumkin. Biroq respublika miqyosida kuzatiladigan bo'lsa, nashr qilingan maktab o'quv lug'atlari turi va soni jihatdan ko'p miqdorni tashkil etadi. Faqat ularni ko'p miqdorda nashr etish va o'quvchilar qo'lga yetkazish hamda undan unumli foydalanishga ko'niktirish zarur bo'ladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarning lug'atlarga nisbatan qiziqishini oshirish va ulardan mustaqil unumli foydalanishga targ'ib qilish maktab muallimining birlamchi vazifasi hisoblanadi.

Keyingi paytda tilni sistema sifatida o'rganish, til sathlarini substansial yo'nalish asosida tahlil qilish yetakchi mavqeni egalladi. XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan, o'zbek substansial tilshunosligi uchun tayanch vazifasini o'tagan formal tilshunoslik, asosan, ommaviy savodxonlikni ta'minlash, zamonaviy adabiy til meyorlarini ishlab chiqish, adabiy til meyorlarini ommalashtirish kabi o'ta muhim masalalar yechimi bilan shug'ullangan bo'lsa, substansial tilshunoslikning oldida turgan vazifa esa

tilning ichki imkoniyatlarini va uning voqelanish usullarini o'rganish va o'rgatish hisoblanadi¹.

Shoir she'rlari yengil o'qiladi. She'rxon she'r ohangiga go'yo jo'r bo'la boshlaydi. Misralardagi ortiqchalikni esa matndan uzib olishning imkoni yo'qday:

*Bo'lsa faqat bo'lar o'zimning o'zi,
to'lsa faqat to'lar o'zimning chashmim.
Durri g'alton zorlarim to'zir,
la'li raxshon xorlarim tashna.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 45-bet)

Bu o'rinda semantik ortiqchalik ham o'ziga xos va o'ziga mos. ***O'zimning o'zi, o'zimning chashmim*** birikmalaridagi semantik ortiqchalikka ham uslubiy vazifa yuklangan.

N.Mahmudov va M.Mirtojiyev o'zlarining «Til va madaniyat» risolasida «har bir til o'z so'z boyligiga, bu so'zlar esa ma'lum fonetik qurilishiga, izchil grammatik qonuniyatlariga ega bo'ladi. Uning shu tomonlariga putur yetib borar ekan, til inqirozga yuz tutadi»,² - deydilar.

O'zbek she'riyatini yaqindan o'rganish, she'rda shoir nazarda tutgan, barcha ilg'ay oladigan va ilg'ay olmaydigan fikr va g'oyalarning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy qiymatini belgilash, badiiy-estetik til xususiyatlarini o'rganish soha mutaxassislarining muhim vazifalaridan biridir.

Til va jamiyat munosabati tilshunoslarning doimiy o'rganish, tadqiq manbai bo'lib kelgan. Jamiyatda kechayotgan jamiki o'zgarishlar tilda o'z aksini topib boradi. Til va jamiyat faoliyati bog'lovchi bo'g'in esa bu lug'atlardir. Tilshunoslar tildagi kuzatishlar asosida xulosalar chiqarib, lug'atlar tuzadilar, til normasini ishlab chiqadilar. Biroq chiqarilayotgan xulosalar nisbiy bo'lib, jamiyatdagi keskin o'zgarishlarga muvofiq tez orada ular ham o'zgarib qolishi

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B 3-5.

²Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. –T.: O'zbekiston, 1992. –B.110.

mumkin. Shunga ko‘ra tilshunoslar tomonidan yaratilgan lug‘atlarning qiymati o‘z davrida nihoyatda muhim sanaladi. Vaqt o‘tishi bilan eski lug‘atlarga bo‘lgan ehtiyoj susayadi va ularning o‘rnini yangisi egallaydi.

Bugungi kunda biz bilan hamnafas bo‘lgan zamonaviy o‘zbek she‘riyatining taniqli shoirlaridan biri Ikrom Otamurod she‘riyatining tili va badiiy xususiyatlarini o‘rganish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Go‘zal she‘r ixlosmandlari va latif til sohiblari tomonidan shoir she‘rlarining hamisha sirli va jozibador ekani ko‘p bor ta’kidlangan, uning ijodida til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish mahorati betakror va o‘ziga xos xususiyat kasb etishi barchaga ma’lum. Ayniqsa, adib ijodida qo‘llangan turli badiiy-uslubiy vositalar, so‘z ma’nosining ko‘chish usullari, badiiy san’atlar she‘r ta’sir ifodasini oshirishga xizmat qilishi, turli tashbeh va sifatlashlarga yo‘g‘rilgan she‘r g‘oyasini so‘zlovchi va tinglovchi munosabati doirasida tushunishga yaqinlashtirishi ma’lum bo‘ladi. Bular sirasiga quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- she‘rda so‘z ma’nosining ko‘chish yo‘li sifatida metafora usulidan unumli foydalanishi;
- uslub yaratuvchi vosita sifatida sifatlashlaridan foydalanishi;
- badiiy uslubga xos bo‘lgan uslubiy bo‘yoqdor, ta’siriy-tasviriy xususiyatga ega bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalaridan mahoratli foydalanishi;
- she‘rda badiiy uslubdan farqli o‘laroq, so‘zlashuv uslubidagi so‘z, so‘z birikmasi, ibora, shuningdek, bandlarda inversiya usulidan o‘rinli foydalanishi;
- she‘r misralarida o‘rinli anafora, maqsadli ortiqchalik va takrorlarni qo‘llashi;
- jonlantirish usuli sifatida tashxis, intoq kabi she‘riy san’atlarga murojaat qilishi;
- she‘riy misralarda harakat tarzi shakllarini o‘rinli va unumli qo‘llashi, ma’nodosh so‘zlardan o‘rinli foydalanishi va boshqa turli unsurlar shoir ijodi qadr-qimmatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Umuman olganda nasrda ham, nazmda fikrning tushunarli bo'lishiga erishish birlamchi masala hisoblanadi. Fikrning qisqa yo keng tartibda bayon etilishi esa tinglovchiga yetkaziladigan ma'lumotning soddaligi yoki murakkabligi, qay shaklda ahamiyatliligi darajasi hamda so'zlovchi va tinglovchining nutqiy madaniyati kabilar bilan bog'liqdir. Buning uchun esa so'zni to'g'ri qo'llash, so'zdagi tovushlarni to'g'ri va aniq talaffuz qilish, gapda so'zlarni tartib bilan joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

UCHINCHI BOB. GRAMMATIK TEJAMLILIK VA ORTIQCHALIK HAMDA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

1-§. Poetik matnda morfologik tejamlilikning kelishik, egalik, shaxs-son hamda kesimlik shakllarida uslubiy xoslanishi

Til faqat jamiyatda, odamlar jamoasi orasidagina mavjud, chunki til orqali insonlar o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar gaplashadilar. Til doimiy to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi hodisadir.

O'z ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, o'zining ildizini bilmaydigan kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan, kelajagi yo'q odam, kishi tilini bilmaydigan uning dilini ham bilmaydi, deb to'g'ri aytishadi. Biz o'zbek tilini o'qitishning eng samarali metodikasini tayyorlash, davlat tilini jadal o'rganishning kurslarini ishlab chiqishda tilshunos olimlarning madadiga ehtiyoj sezib turibmiz. Xalqning ko'p asrlik madaniyatini o'rganish uchun darslik bo'ladigan eski o'zbek madaniyatini o'rganish muammosi ham kun tartibida turibdi¹.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi – og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat². Shunga muvofiq yaratilgan joriy ona tili darsliklari shu muammolarni hal qilish masalalariga qaratilgan. Hozirda o'qitishda ta'limning yangicha usullaridan foydalanishni maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi emas, o'quvchi faolligini oshirish, a'lochi o'quvchi emas, biluvchi (bilishga intilib boruvchi) shaxsini tayyorlash, dars jarayonida ma'ruzachi (o'qituvchi) emas, dars jarayonini tashkil etuvchi, o'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni xulosalab beruvchi o'qituvchi shaxsiga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi milliy tizimni yaratishdan iborat edi. Joriy maktab ona tili darsliklarini yaratishda shu talablarga amal

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: Ma'naviyat, 2011. 67- 89-betlar.

² Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili. Sharq, 1999, 1-maxsus son. 55-bet.

qilingan. Darsliklarda bir tushunchaga shaklan turlicha ta'rif va tavsif berish hollari uchraydi. Bunda o'quvchilarning mazmunan yagona mohiyatga asoslangan turli ta'rif tavsiflarni birdek qabul qilishi, muhimi, fanda biryoqlamalik, ya'ni (shaxsning hayotiy qarashlarida ham) biror fikrda muntazam qotib qolmasligi, ikkinchi bir fikrni ham qabul qila olishi, vaziyatga ko'ra o'z o'rnida to'g'ri qarorga kela olish kabi holatlar mualliflar yaratgan darsliklarda o'z aksini topgan.

Har qanday yangilik o'z o'rnida barchaga birdek xush kelmagani kabi, darsliklarda muayyan atamaga berilgan turli ta'rif va izohlar ayrim maktab o'qituvchilari uchun xush kelmayotgan bo'lsa-da, dars jarayonida narsani turli holat va ko'rinishlarda o'rganish, bahs-mubohasa, ko'pning fikrini tinglash, ko'pfikrlilik, hurfikrlik, ulardan yagona umumiy xulosa chiqarish o'quvchilarda qiziqish uyg'otib, o'qituvchi uchun ularni darsda kashf etish usuli bo'lib xizmat qilmoqda.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi – og'zaki va yozma nutq ko'nikmasini, to'g'ri va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirishdan iborat. Shunga muvofiq yaratilgan joriy ona tili darsliklari shu muammolarni hal qilish masalalariga qaratilgan. Hozirda o'qitishda ta'limning yangicha usullaridan foydalanishni maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, dars jarayonida o'qituvchi emas, o'quvchi faolligini oshirish, a'lochi o'quvchi emas, biluvchi (bilishga intilib boruvchi) shaxsini tayyorlash, dars jarayonida ma'ruzachi (o'qituvchi) emas, dars jarayonini kuzatuvchi, o'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni xulosalab beruvchi o'qituvchi shaxsiga e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar yili" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarorida "Ta'lim jarayonini uning uzluksizligi va davomiyligi nuqtai nazaridan yanada takomillashtirish, o'rta maktab bitiruvchilarining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan to'liq qamrab olinishini taminlash, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida yoshlardan munosib ravishda foydalanish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishni kafolatlaydigan, real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida talab qilinayotgan yo'nalishlar va ixtisosliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil qilish" masalasiga alohida etibor qaratilgan.

Bugungi kun maktab ona tili darsliklarining ba'zi o'rinlarda kamchiliklari ham mavjud, biroq mualliflar darsliklarni tilimizning ichki tabiatidan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning yoshiga mos, milliy mentalitetimizga to'g'ri keladigan mashq va topshiriqlar asosida yozganliklari ko'pchilikda ijobiy kayfiyat uyg'otmoqda.

Mustaqil O'zbekiston o'z xalqi tanlab olgan yo'l ochiq, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidan bosqichma-bosqich olg'a bormoqda. Davlatimiz oldida turgan g'oyat muhim vazifalar – mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan isloh qilish, iqtisodiy munosabatlarni demokratiyalash, kelajak poydevori bo'lmish yuksak ma'naviyatimizni rivojlantirishdan, ta'lim-tarbiya tizimi shakli va mazmunini tubdan isloh qilib o'zgartirish, uni yangi zamon darajasiga ko'tarishdan iborat.

Buning uchun muqaddas zaminda yashayotgan har qaysi inson Vatan istiqboli, uning ravnaqi va kelajagi uchun kurashishi lozim. Mustaqil mamlakatimizga mustaqil fikrlaydigan ijodkor kadrlar zarur.

Mustaqil fikr yuritadigan, o'z bilimlarini hayotga tatbiq eta oladigan ijodkor kadrlarni tayyorlash maktabdan boshlanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz» (Karimov I. A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T., O'zbekiston, 1996. -364 6 9-6).

Mustaqil O'zbekistonning porloq kelajagi yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashni talab etadi. Barkamol insonni tarbiyalashda esa zamonaviy darsning alohida o'ri bor. Hayot gultoji hisoblangan insonning kamolot davri, inson bo'lib shakllanish onlari maktabda kechadi. Inson ulg'ayganda unga obro'-e'tibor keltiruvchi barcha fazilatlar bolaligida shakllanadi. Shuning uchun o'quvchi yoshlarda o'ziga xos ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarur.

Morfologik tejamlilik ma'lum affiksning belgisiz kelishi yoki fonetik qisqaruvi bilan yuzaga keladi. Poetik matnda kelishik qo'shimchalarining belgisiz qo'llanishiga turli uslubiy omillar sabab bo'ladi. O'zbek tilida qaratqich kelishigi hamda tushum kelishigining belgisiz shaklda qo'llanishi qonuniy hodisa, shu boisdan qaratqich va tushum kelishiklarining omonimik xarakterdagi -n varianti bilan distant yoki kontakt ko'rinishda berilishidan yoki belgisiz kelishidan (ba'zan jo'nalish yoki o'rin-payt kelishiklari bilan) ko'zlangan stilistik maqsad muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, jo'nalish kelishigi yo'nalganlik (*maktabga bormoq*), xoslik (*niyatiga yetmoq*), atalganlik (*onasiga olmoq*) kabi ma'nolarni anglatadi, affiksning belgisiz qo'llanishi o'rin otlari hamda "o'rin anglatuvchi sifatlarda yuz beradi"¹. Vazn talabiga ko'ra jo'nalish kelishigi yo'nalish ma'nosini takrorlamaslik maqsadi bilan o'rin otida belgisiz qo'llangan:

Kanglum sukunatni sog'inar,

*istaydi **sukunat gurungin**.*

Sukunat sirqib,

sukunat inar –

rangin, rangin, rangin...

(*Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 41-bet*)

O'zgargan tartibdagi misralarni odatdagi tartibga qaytarsak, *Kanglum sukunatni sog'inar, **sukunat gurungin** istaydi* tarzida o'rinishadi. Bu o'rinda **sukunat** tobe so'z sifatida, belgisiz qaratqich kelishigi shaklida (distant holatda), **gurungin** esa, belgili qisqargan tushum kelishigi shaklida (kontakt holatda) **istaydi** – hokim qismga tobelanadi.

Tejamlilikka, amal qilinmagan o'rinlarda vazn buzilishi kuzatiladi. Jo'nalish kelishigi *tomon* ko'makchili so'zda birlashtiruvchi shakl bo'lsa, ko'pincha belgisiz ifodalanadi:

*Bir kuni... Sen **tomon** uchaman,*

¹ O'zbek tili grammatikasi. I tom. –T.: Fan, 1975. -B.238.

sukunat jonimning tayri...

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 41-bet)

Adabiy tilning og'zaki shaklida so'z tanlash, gap tuzish va to'g'ri talaffuz me'yorlariga amal qilish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, uning yozma shaklida orfografiya me'yorlariga (imlo qoidalariga) amal qilish shunchalik muhimdir. Bunday me'yorlarga amal qilish yozma nutq mazmunining to'g'ri va aniq idrok qilinishiga yordam beradi, yozma nutqda anarxiyaning (boshboshdoqlikning) avj olishiga yo'l qo'ymaydi. Adabiy tilning, xususan, yozma nutqning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy rolini mustahkamlashda buning o'ziga yarasha ahamiyati bor.

Shoir ijodida poetik matnda o'rin-payt kelishigining (bir o'rinda chiqish kelishigining) belgisiz qo'llanishi; kelishiklarning uyushiq bo'laklarga yaxlitlovchi shakl sifatida qo'shiluvi distant holatdagi morfologik tejamlilik sifatida ko'plab uchraydi. Shuningdek, qaratuvchi kishilik olmoshi bilan ifodalanganda I va II shaxs ko'plik, ba'zan I shaxs birlik egalik shaklining tushirilishi yoki qaratuvchi ifodalanmagan o'rinlarda belgisiz egalik affiksi tushilgan kesimga nisbat berib tiklanishi morfologik tejamlilik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, fe'l "konstruktiv imkoniyatlari keng" so'z turkumi hisoblanadi. XVIII-XIX asrlarga oid ayrim she'riy asarlarda *a l m a m* tarzidagi fe'l shakli uchraydi¹, bunda -m affiksi hozirgi-kelasi zamon (-y) hamda shaxs-son (-man) affikslarini o'zida jamlagan. Hozirda bu shakl poeziya tili uchun xosdir, mazkur arxaik affiksga shartli ravishda morfologik tejamlilik deb qaraldi:

Yo'llar g'anim bo'ldi. Tun bo'ldi og'u.

Umidim dayrida bandidir bo'zim.

Sen-ku, kechirarsan imkonsiz chog'i,

*lekin **kechirolmam** o'zimni o'zim.*

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 22-bet)

¹ Abdurahmonov G., Shukurov Sh, Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. -B.261.

Lingvopoetik jihatdan fe'llarning o'ziga xos yasalmalarini o'rganish ularning semantik ma'no doirasini tahlil etadi¹, masalan, *-m* affiksi fe'lda ikkinchi bir zamon – o'tgan zamon fe'lini ifodalashi kuzatiladi.

Ega I, II shaxs kishilik olmoshi bilan ifodilangan o'rinlarda ot kesimda kesimlik affiksining belgisiz ifodalanishiga morfologik tejamlilik sifatida qaraldi va bunday o'rinlarda leksik-morfologik ortiqchalikka barham berilishi ma'lum bo'ladi.

So'z va qo'shimchalar tarixan, an'anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo'lsa, hozir ham shunday yozilishining talab etilishi tarixiy-an'anaviy tamoyildir. Boshqacha aytganda, so'zlar hozirgi holatiga ko'ra emas, balki an'ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko'ra yoziladi:

Yo'llaringda mushtoq ko'zlarim kuygay,

Tilimni yondirib, so'zlarim kuygay,

Uylasam o'ylarim, bo'zlarim quygay,

So'nggi ohi menman ochunning.

Misralaridagi *kuygay, kuygay, quygay* so'zlarida a+di (zamon va shaxs-son) shakllari;

Oshno aylar meni o'ziga xayol,

Hayrona tururman, hayronaman, lol,

Javobsiz qolgaydir, javobsiz savol -

Men seni qaylarda ko'rganman. sunbul?

Misralaridagi *javobsiz qolgay* so'zida a+di (zamon va shaxs-son) shakllari;

Qo'zg'olsa o'r-o'ronlab,

Yuraklarda bo'hronlar,

Ko'chgay ojiz yolg'onlar,

Sen endi olisdasan,

Men endy olisdaman.

¹ Rixsiyeva G. O'zbek tilida bazi noodatiy fel-yasalmalar poetikasi // O'zbek tili va adabiyoti. -T., 2007. -№2. - B.77.

Misralaridagi *ko'chgay* so'zida a+di (zamon va shaxs-son) shakllari tarixiy-an'anaviy tamoyil asosida yozilgan.

Shoirning qator she'rlarida birinchi shaxs birlikdagi *men* olmoshining qaratqich kelishikdagi shakli tarixiy-an'anaviy tamoyil asosida ifodalangan. Masalan:

*Hajr girdoblari – to'zg'igan oh bu,
Manim yuragimda o'prilgan choh bu,
Armonim sahrosin sayr etgan ohu,
Men seni asrayman dilda jon qadar...*

misralaridagi *manim yuragimda* birikmasida *mening o'rnida*;

*Manim kangluma chiznish tasvirini
zulfizar sog'inchlar farishtam.
Husningning man kabi zor - asirini
bitigida zahrabo raqam...*

misralaridagi *manim kangluma* birikmasida *mening ko'nglimga o'rnida* tarixiy-an'anaviy tamoyil talabi bilan yozilgan.

Keyingi paytda tilni sistema sifatida o'rganish, til sathlarini substansial yo'nalish asosida tahlil qilish yetakchi mavqeni egalladi. XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan, o'zbek substansial tilshunosligi uchun tayanch vazifasini o'tagan formal tilshunoslik, asosan, ommaviy savodxonlikni ta'minlash, zamonaviy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish, adabiy til me'yorlarini ommalashtirish kabi o'ta muhim masalalar yechimi bilan shug'ullangan bo'lsa, substansial tilshunoslikning oldida turgan vazifa esa tilning ichki imkoniyatlarini va uning voqelanish usullarini o'rganish va o'rgatish hisoblanadi¹.

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B 3-5.

Tilga yaxlit sistema sifatida qaralar ekan, u o‘z ichida bir qancha sathlarni birlashtiradi. Bu sathlar ham o‘z o‘rnida ko‘plab kichik guruhlarini qamrab oladi. Tilshunoslikning bu sohasida yaqin o‘tmishda qator ishlar amalga oshirildi. Ularga tayanib aytish mumkinki, bugungi kun sistemaviy o‘zbek tilshunosligi til va uning sathlarini sistemaviy tadqiq qilish asosida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritdi¹ va ayni paytda ilmiy izlanishlar davom etayotganligini e’tirof etish lozim.

Til sathlarini sistemaviy tadqiq qilish nisbatan leksik sathda ilgariroq boshlangan, chunki leksik sath tilshunoslar tomonidan tilning asosiy yarusi (markazi) sifatida baholangan. Shu bois 70-yillarda til hodisalarini sistemaviy tadqiq qilish, asosan, tilning lug‘at tarkibi yuzasidan amalga oshirilgan. Bu sohadagi dastlabki tadqiqotlarni Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, I.Abdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev kabi tilshunoslar ishlarida kuzatish mumkin.

“Obyektiv olam sistema ekan, ongda aks etgan bu sistemaning tilda ifodalanishi ham sistemalilikni namoyon qiladi. Til ontologik (ichki tuzilish) jihatidan ko‘p sathlilik xususiyatiga ega bo‘lib, uning har bir sathi sistemalilikka amal qiladi. Jumladan, leksik sath butun va bo‘lak, kull va juzv dialektikasini o‘zida aks ettirgan holda, muayyan leksik semantik guruhlar munosabatidan tashkil topgan sistemadir”.

Til sathlarini muntazam ravishda bog‘lagan holda, o‘xshashligi va umumiyligiga asoslangan mavzuviy guruh va maydonlar asosida o‘rganish bugungi kun tadqiqotchiligidan asosiy mezonlaridan hisoblanadi. Shunga asoslanib aytish mumkinki, leksika (leksik sath) ni tizim sifatida o‘rganishning asosiy maqsadi – so‘zning turli (lisoniy, nutqiy-hosilaviy) ma’nolarini yaxlit holda tahlil qilish, o‘rganish va ulardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

O‘tgan asrning birinchi yarmida adabiy til meyorlarini belgilash va omma ongiga singdirish, savodsizlikni tugatish talabi asosida ona tili ta’lim maqsadi

¹ Begmatov E., Ne’matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) // O‘zbek tili va adabiyoti. 1989. –№ 6. -B. 35-40; Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. dokt....dis. – T., 1999; Mengliyev B. Lisoniy sistema yaxlitligi va unda sathlararo munosabatlar: Filol. fan. dokt... dis. – T., 2002.

belgilangan. Ta'lim oluvchilarni tilning ichki qurilishi bilan tanishtirish, qonuniyatlarini o'rgatish asosida xalq ongiga adabiy til meyorlari singdirilgan. Shuning uchun tilshunoslikda qo'yilgan, hal etilgan vazifalar va qo'lga kiritilgan yutuqlar asosida ilk ona tili darsliklari yaratilgan. Darsliklarda o'zbek tilining imlosi, fonetik va grammatik qurilishini chuqur va atroflicha o'rgatishga katta e'tibor qaratilgan. Tilshunoslikdagi ilmiy yutuqlar davr sinovidan o'tib, maktab ona tili darsliklaridan o'rin olgan. Bu darsliklar asosida kishilarning savodi chiqib, adabiy til meyorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ommalashgan. Jamiyat yaxlit va yagona adabiy til meyorlariga ega bo'lgan.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qabul qilingan davlat ta'lim hujjatlarida ona tili ta'limi maqsadi muayyanlashtirildi. Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturida ona tili ta'limi oldiga quyidagi bosh maqsad qo'yildi: "ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojallantirishga qaratishi lozim». Chunki umumiy o'rta ta'limning 5-9 sinflarida o'quvchilarning ruhiy-fiziologik holati o'ziga xos bo'lib, ularda ijodiylik, o'zlashtirilgan bilimi, egallagan ko'nikma va malakasi asosida irod qilish, ya'ni yaratish, bunyod etishga, yangilik va g'ayrioddiylikka qiziqish kuchayadi.

Demak, ona tili ta'limi jarayonida asosiy diqqatni o'quvchining so'z boyligini oshirish, so'zlarning ma'no nozikliklari, farq va o'xshashliklarini his qilish va anglab yetish, bexato talaffuz qilish va yozish, so'zlarni bog'lab gap, gaplardan esa matn tuza olish, birikmalardagi ma'noviy va grammatik, matndagi mantiqiy xatoliklarni topish va tuzatish, o'zgalar fikrini to'g'ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash, uzilgan fikrning davomini tiklash kabi qator mantiqiy operatsiyalarni bajarish, nutq vaziyatini to'g'ri baholash va til imkoniyatlaridan unga mos ravishda foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va malakasini o'stirishga qaratish zarur. O'quvchiga mana shu amaliyot uchun kerak bo'lgan ayrim fonetik, leksik va grammatik qoidalarnigina berish, fikrni ifodalash va anglashning turli mexanizm va usullarini, ularni turli nutq sharoitiga mos ravishda

qo‘llash yo‘llarini tavsiya etish, bunga asoslangan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, notiqlik va madaniy nutq mashg‘ulotlariga e‘tiborni kuchaytirish zarur. Demak, tom ma‘nodagi zamonaviy ta‘limda tilshunoslikning ilmiy masalalariga doir qoidalar keskin qisqartirilib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik ma‘lumotlar tafakkur va nutq o‘stirish amaliyoti “soyasi”da bo‘lishi va unga xizmat qilishi, o‘quvchining miyasi zinhor samarasiz lingvistik qoida va idroki til qurilishiga doir mashqlar bilan band qilib qo‘yilmasligi maqsadga muvofiq.

Ona tilidan davlat ta‘lim standartlari asosidagi o‘quv dasturida zarur bilimni olish va ko‘nikmalarni hosil qilish uchun o‘quvchi tomonidan bajariladigan o‘n xil uzviy ketma-ketlikdagi faoliyat tavsiya etilgan (kuzatish, izlanish-o‘ylash, alohidalikni sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif qilish, aloqadorlikni aniqlash, qo‘llash). Bu isloh qilingan ona tili ta‘limi vositasi bo‘lgan ayrim darsliklarda ma‘lum darajada o‘z aksini topdi. Lekin ular ham faqat til qurilishini o‘rganish misolida amaliyotga tatbiq qilindi. Bu hol, albatta, amaldagi ona tili ta‘limi reproduktiv darsliklardan yangi – kognitiv dastur-darsliklarga o‘tish davrini boshdan kechirayotganligi bilan izohlanadi.

Xullas, davr ona tili darsliklaridan o‘quvchilarga o‘zbek tili qurilishi haqidagi bilimni emas, balki tom ma‘noda ona tili imkoniyatini egallash mexanizm va usullarini berishini taqozo qilmoqda. Joriy ona tili darsliklari vositasida ta‘limning umumiy maqsadi oldimizga qo‘yayotgan bu vazifani amalga oshirib bo‘lmaydi.

Pedagoglar mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantiruvchi ta‘lim sifatida, reproduktiv o‘qitishga zid o‘laroq, kognitiv ta‘limni ustun qo‘yadilar. Zarur bilim zahirasi berishga xizmat qiluvchi reproduktiv ta‘limning asosiy vositasi sifatida darsliklar e‘tirof etiladi. Chunki unda o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan bilimlar silsilasi, tegishli qoida va xulosalar, unga mos mashq va topshiriqlar tizimi, uni bajarish namunasi tayyor qilib beriladi, o‘quvchining shu bilan chegaralanishi kifoya qilib qo‘yiladi. Kognitiv (ingl.: cognition – bilishga oid, idrokiy) ta‘lim esa o‘quvchini izlanish, qiyoslash, xulosa chiqarish va zarurini tanlashga yo‘naltiradi.

Demak, reproduktiv ta'lim bilim bersa, kognitiv ta'lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo'llarini o'rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o'quvchi qo'lga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o'quvchiga o'rgatib bo'lmaydi.

Kognitiv ta'limda darsliklar faqat sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan iborat bo'lib, o'quvchini ana shu topshiriqlarni o'qituvchi nazoratida bajaruvchi, izlanuvchan va faol subyektga aylantiradi.

Demak, davr bizning oldimizga ona tilidan algoritmik (xoh elektron, xoh qog'oz variantli) darsliklar yaratish, buning uchun ularning pedagogik-psixologik va metodik asoslarini ishlab chiqish, dasturini tuzish, mazmunini belgilash, har bir sinf uchun mundarijasini rejalashtirishdan iborat mas'uliyatli vazifani qo'ymoqda. Bu esa, avvalo, o'quvchining qo'lida tegishli ma'lumotni bera oladigan o'quv materiali – ta'lim vositalari bo'lishini taqozo qiladi.

Xullas, morfologik tejamlilik poetik matnda qulaylik, ixchamlilikni ta'minlashga xizmat qilib, kelishik, egalik, shaxs-son, kesimlik affikslarini stil maqsadi bilan tejash takroriylikka yo'l qo'ymaslik, sillabik tenglik, nutqiy qulaylikka intilish orqali badiiy axborotni aniq tushunishga imkon beradi.

2-§. Poetik matnda morfologik ortiqchalikning ifodalanishi va sintaktik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi

Tilning adabiyot, sa'nat, umuman madaniyat kabi ijtimoiy hodisalardan farqi shundaki, ular ma'lum bir sinfnig manfaatini ko'zlaydi, uning mafkurasini targ'ib qiladi, til esa jamiyatdagi barcha kishilar uchun bir xil xizmat qiladi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan so'ng barcha sohalarda: ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy, siyosiy, shuningdek, texnika va sport sohasida ham milliy mentalitetimizga xos tadrijiy istiqbolli rejalar belgilab olindi. Kasbiy faoliyat, ijodiy va diniy e'tiqod erkinliklariga keng yo'l ochildi. Xususan, uzoq yillar

mobaynida buyuk ajdodlarimizning bee'tibor qoldirilgan durdona asarlarini xolisona o'rganish, xalqimizga ularni o'z holicha yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Til faqat jamiyatda, odamlar jamoasi orasidagina mavjud, chunki til orqali insonlar o'z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar gaplashadilar. Til doimiy to'xtovsiz ravishda o'zgarib turuvchi, taraqqiy etib boruvchi hodisadir.¹

Shu ma'noda ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar ham o'ziga xos bo'lib, globallashuv jarayonida ona tili o'qitish tizimini isloh qilish, zamon bilan hamnafas pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil etish muhim hisoblanadi.

Fan hamisha rivojlanish va taraqqiyotda. Bugungi kunda u misli ko'rilmagan darajada jadal tus oldi. Bunga, bir tomondan, dunyo miqyosidagi globallashuv, fanlararo integratsiyaning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar amaliy qiymatining o'sishi ta'sir qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, milliy manfaatlarining kuchayishi, geopolitik siyosat qamrovining kengaya borishi kabi qator omillar jiddiy sabab bo'lmoqda.²

Har bir davr fani o'z oldiga yangicha maqsad va vazifalarni qo'yadi, sohadagi muammo va masalalarning yechimini taklif qiladi.³

Ona tili sifatida o'zbek tili sintaksisining talqin va tavsifida fanimizda o'z davrida ancha keng ommalashgan ilmiy-amaliy yondashish va yo'nalishlar sifatida uch asosiy maktabni sanab o'tish va bularni

formal yondashuv,

mazmuniy yondashuv,

substansial (formal-funksional) yondashuv sifatida ajratish mumkin.

Keyingi paytda tilni sistema sifatida o'rganish, til sathlarini substansial yo'nalish asosida tahlil qilish yetakchi mavqeni egalladi. XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan, o'zbek substansial tilshunosligi uchun tayanch vazifasini o'tagan formal tilshunoslik, asosan, ommaviy savodxonlikni ta'minlash, zamonaviy adabiy til meyorlarini ishlab

¹ Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2003. –B. 3.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B. 83.

³ Ne'matov H., Bozorov A. Til va nutq. – T.:O'qituvchi, 1993.- B.28.

chiqish, adabiy til meyorlarini ommalashtirish kabi o‘ta muhim masalalar yechimi bilan shug‘ullangan bo‘lsa, substansial tilshunoslikning oldida turgan vazifa esa tilning ichki imkoniyatlarini va uning voqelanish usullarini o‘rganish va o‘rgatish hisoblanadi¹.

Har uchala maktabda til sistema sifatida qaraladi va tadqiqotu tavsiflar sistem tahlil asoslarida amalga oshiriladi, lekin har bir yo‘nalishda sistema (tizim) va sistem munosabatlar tabiatini tushunishda jiddiy farqlar va qarama-qarshi talqinlar mavjud. Bunday tafovutu farqlar tadqiq manbai – o‘zbek tili sintaktik qurilishining – serqirraligi va ichki ziddiyatlar majmuasidan iboratligi bilan bog‘liq; har bir yondashuv manbaning ma’lum bir qirrasini yorqinroq ochish va tavsiflashga, shu tomonni boshqa qirralardan ko‘ra bo‘rttirib tavsiflashga xizmat qiladi.

Morfologik ortiqchalik affikslarning bir so‘zga bir xil yoki sinonim affiks sifatida ketma-ket tarzda yoxud bir affiksning bir necha so‘zga yonma-yon qo‘shiluvidan yuzaga keladi va shunga ko‘ra distant yoki kontakt holatda joylashadi. Dastavval fe’lda ko‘plik ma’nosining distant holatda pleonastik ifodalanishi tahlil etildi. Ma’lumki, birgalik nisbati ish-harakatning ikki yoki undan ortiq subyekt tomonidan bajarilganligini ko‘rsatishiga ko‘ra ko‘plik ma’nosini ham ifoda etadi: kelishdi (keldilar) kabi. I.Otamurodning aksariyat she’rlari atayin nomlanmagan. Misralarda ayrim ma’nolarning, xususan, “ko‘plik” ifodasining pleonastik qo‘llanishlari tez-tez uchrab turadi:

Xotirlar keldilar, xotirlar yo‘ngan,

Oy xotir, sen xotir, men xotir.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 26-bet)

Bir o‘rinda ega-kesim moslashuvining uchinchi shaxs ko‘plikdagi holati shaxsda mos bo‘lsa-da, sonda moslashishi talab etilmaydi:

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B 3-5.

Kontakt pozitsiyadagi morfologik ortiqchalik bir fe'lga ko'plik hamda birgalik nisbat formalari qo'shiluvda kuzatiladi: *qo'shishdilar, ichishdilar* kabi. Shuningdek, shaxs-son affiksining I shaxs ko'plik shakli birgalik nisbati bilan kontakt holatda pleonastik qo'llanganda, ta'kid ma'nosi anglashiladi:

Sen mendasan.

Mening ko'zlarimda... ("*Sen mendasan*")

(Otamurod Ikrom. *Vaqt ranglari*. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti., 1982. 14-bet)

Keyingi misralarga e'tibor qaratamiz:

*Kanglum, meni tushinguvchi o'zingsan faqat,
kanglum, faqat seni anglab yetguvchi o'zim.
Mening vujudimda ulg'ayar toqat,
sening vujudingda g'unchalar to'zim...*

Bu o'rinda moslashuvli *mening vujudim, sening vujuding* birikmalarida *mening, sening* qaratqichli birikmalari ortiqcha. Biroq bu ortiqchalik ta'kid va kuchaytiruv ma'nosidadir.

Shuningdek, quyidagi misralarda ham shu kabi holatlar kuzatiladi:

*Ko'zlarim qarog'ida g'amlarim oqib bo'ldi,
O'ng kelmagan tushlarim bag'rini yoqib bo'ldi,
Ishq mehvariga armon koshinlar taqib bo'ldi,
Sensan mening hijronim,
menman sening hijroning...*

Bu o'rinda ham *mening hijronim, sening hijroning* birikmalarida *mening, sening* qaratqichli birikmalari ortiqcha. Bu holat keyingi misralarda ham davom etadi:

*Dunyo – sutumlari qulagan ravot,
Junun vodiysida boyqush cho'qilar.
Umid – yelayotib ko'z tekkan oq ot
Mening azobimga dodlab yiqilar...*

Poetik matn misolida *-lar* affiksining *biz, siz* olmoshlariga kontakt ravishda, predikativ birikmaga distant holatda ortiqcha qoʻshilishi, shuningdek, koʻplik, egalik, kelishik, shaxs-son, baʼzi oʻrinlarda *-mi* soʻroq yuklamasining uyushiq boʻlaklarda distant holatda morfologik ortiqcha qoʻllanishi tahlil etildi. Leksik-morfologik ortiqchalik, yaʼni analitik hamda sintetik yoʻlning aralash holda pleonastik qoʻllanishi koʻplik maʼno (*ming-minglab baytlar, turfa xil xatlar, necha-necha saroylar, koʻp yillar*)sini, predikativ birikmada shaxs-son maʼnosini, qaratuvchi-qaralmish konstruksiya (*mening sozim*)sida qarashlilik maʼnosini, sifat va ravishning qiyosiy daraja (*bir oz ortiqroq, sal barvaqtroq*)larida qiyoslash maʼnosini taʼkidlab koʻrsatishi poetik matn talabiga mos keladi.

Poetik matnda morfologik ortiqchalikning ifodalanishiga eʼtibor qarataylik:

Xatlaringda uch nuqtalar koʻp:

gʻamgin qarar,

gʻamgin termular.

Yuragingning qadoqlari boʻp

oʻsadi uch nuqtalar...

Bu oʻrinda koʻplik tushunchasi *koʻp* – ravish leksemasi orqali ifodalangan, morfologik shaklda koʻplik ifodalovchi *-lar* shaklini qoʻllashga ehtiyoj yoʻq. Shoir esa usubiy ifoda maqsadida undan unumli foydalangan.

Misralarga eʼtibor qarataylik:

Qaygʻular keladi surilib,

sogʻinib keladi gʻamlar.

Yuragim ochaman burilib

bir kamlar, bir kamlar, bir kamlar...

Bu oʻrinda ham morfologik shaklda koʻplik ifodalovchi *-lar* shaklini qoʻllash shoirning usubiy ifoda usuli bilan bogʻliq.

Olmoq feʼlining kelasi zamon uchinchi shaxs birlikdagi shakli boʻlgan *oladi* soʻzshaklini eski oʻzbek tilida *oladurur // oladur* koʻrinishida ishlatilgani sheʼrxon

uchun tanish hodisa. Bu esa shoirning o‘z she’rlarida tarixiy-an’anaviy tamoyildan unumli foydalanishi uchun asos bo‘lgan:

*Sog‘inar xotirlar gurungin,
armonlar gurungin **istaydir.***

(Otamurod Ikrom. *Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 41-bet*)

Tarixiy-an’anaviy yozuvda so‘z va qo‘shimchalar tarixan, an’anaviy tarzda qanday yozib kelingan bo‘lsa, hozir ham shunday yozilishi talab etiladi. Boshqacha aytganda, so‘zlar hozirgi holatiga ko‘ra emas, balki an’ana tusiga kirib qolgan qoidaga ko‘ra yoziladi: ruscha *Царская Россия* – *Chor rossiyasi*, *царизм-chorizm*, *подрядчик-pudratchi*; *borgil*, *borur*, *Qoshi yosinmu deyin...* kabilar.

Hozirgi orfografiyada tarixiy-tradision yozuv asosida yoziluvchi ba’zi shakllar quyidagilar:

Buyruq-istak mayli eski adabiyotimizda qo‘llanib kelgan an’anaga ko‘ra she’riyat va proza tilida ba’zan *-gil*, *-g‘il* tarzida ishlatiladi: *borgil // borg‘il*.

Maqsad ma’nosini anglatuvchi *-gani* shaklining *-gali*, *-g‘ali*, *-kali*, *-qali* shakllari: ko‘rgali husning...

Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklini yasovchi *-ur* shakli: Yulduzlar o‘tiga bardosh *berurman* Fazolar taftiga *qilurman* toqat (*A.Oripov*)

-mu shakli: Sevgini tortib *bo‘lurmu* Tosh-u tarozi bilan. (*E.Vohidov*)

Poetik matnda sintaktik tejamlilik va ortiqchalikning uslubiy xoslanishi o‘ziga xos bo‘lib, tejamlilik tamoyilining sintaktik sathdagi ko‘rinishi ellipsis tarzida namoyon bo‘ladi. *Ellipsis* (grekcha, tushirib qoldirish)¹ yoki “(yetishmovchilik), ya’ni gap mazmuniga ta’sir etmasdan ba’zi so‘zlarning tushirilishi ko‘pincha ma’no va effektni kuchaytiradi”. Masalan, kontekstual to‘liqsiz gaplarda ellipslashgan bo‘laklar “shu to‘liqsiz gapdan oldin yoki keyin kelgan qo‘shni gaplar orqali aniqlanadi”²:

*Uzoqning gapi – kutilmagan xabar,
shoshirib qo‘yadi birdan.*

¹ Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T., O‘qituvchi, 1992. -B.113.

² Boboyeva A. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida to‘liqsiz gaplar.-Toshkent: Fan, 1978. -B.32.

So‘roqlar izma-iz kelar har safar:

Ha! Nima? Kim? Qachon? Qayerdan?

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 20-bet)

Ellipsis (yun. *elleipsis* – tushish, tushirilish) nutq unsurining tushib qolishi hodisasidir. Nutqda ellipsis turli maqsadlar bilan (masalan, iqtisod talabi bilan) yuz beradi. Undan odatda uslubiy figura sifatida foydalaniladi. Tilda esa turli sabablar bilan yuz beradi. Macalan, *ugra osh* (ugra bilan tayyorlangan osh) (birikmasidagi *osh* so‘zining ellipsisga uchrashi (tushishi) natijasida *ugra* so‘zi yangi ma’noga ega bo‘lgan (ovqat nomiga aylangan). Nutqiy ellipsis juda ko‘p uchraydigan hodisa. Macalan, *Yaxishlar ko‘paysin, yomon qolmasin* (*odam* so‘zi ellipsisga uchragan). Bu hodisa *lingvistik iqtisod* tushunchachi bilan bevosita aloqadordir¹.

Bir misrada dialog tipidagi *Nima? Kim? Qachon? Qayerdan?* elliptik shakllarida to‘rt gapning mazmuni uch so‘zga reprezentatsiya qilingan: *Kutilmagan xabar nima?; Kutilmagan xabar kim haqida?; Kutilmagan xabar qachon yuz berdi?; Kutilmagan xabar qayerdan boshlangan?* kabi. Nutqiy kontekst ta’sirida konstruksiya tarkibi ellipslashganda, gap birikma yoki so‘z holatida shakllanib matn bilan bog‘liq holda mazmunan to‘liq bo‘ladi. Afzallik shundaki, zarur mazmun birinchi planga chiqadi, poetik matnda fikr qancha qisqa berilsa, u shuncha ta’sirchan bo‘ladi.

Kontekstual to‘liqsiz gaplar, situativ to‘liqsiz gaplar, elliptik gaplarga formal implitsit ifoda, jim qolish usuliga “sof” implitsit ifoda sifatida qaraladi. Formal implitsit ifoda deyilishiga sabab ellipsisda tushirilgan bo‘lakni predikatsiyada qayta tiklash mumkin, jim qolish usulida esa ijodkorning sukuti orqali uning ruhiy iztiroblari, psixologik holati, mohiyatni anglash o‘quvchiga havola qilinadi.

Gapda shakl-mazmun munosabatidagi nomutanosiblik shakliy birliklarning ko‘p ifodalanishi natijasida ro‘yobga chiqishi sintaktik ortiqchalikni yuzaga keltiradi. O.Sheronovning fikricha, izohlovchili butunlik har doim ortiqcha hissaga ega bo‘ladi, fikrimizcha, izohlovchilar ortiqchalikka daxldor emas, bunda predmet

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zME, 2002. 28-b.

qo‘shimcha nom bilan atalib, bu nom predmetning belgisi, xususiyatini ifodalaydi, ya’ni u aniqlovchidir. Ma’lumki, ajratilgan bo‘laklarda yarim predikativlik mavjud, shunga asosan, ajratilgan izohlovchi doimiy ortiqchalikni ifoda etadi, desak xato bo‘lmaydi. Ajratish natijasida ortiqchalikka imkon yaratiladi, ya’ni gap qurilmasida mavjud ma’noga ajratilgan bo‘lakdagi ma’no semantik tavsif beradi, ajratish qurilmada ortiqchalikni yuzaga keltirib, qo‘shimcha semantik “yuk”ka ega bo‘ladi. Izohlovchili izohlanmish+ajratilgan izohlovchi+ajratilgan izohlovchi tartibida hatto intonatsion xususiyatlar ham “ortiqcha” hissaga ega bo‘ladi, natijada intonatsion ko‘tarilish sodir bo‘ladi:

Ta’til tugar. Yana shaharga

Ikrom – g‘arib jussang yo‘l olar.

Dov bermas qayrilib qararga -

yuraging uzilib qolar...

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 14-bet)

Tartibini o‘zgartirish orqali gap bo‘laklarini ajratish, asosan, ajratilgan aniqlovchi va ajratilgan ravish holi doirasida bo‘ladi. Sifatlovchi aniqlovchi, odatda, aniqlanmishdan oldin keladi, ravish holi ham xuddi shunday fe’l-kesimdan oldin keladi. Ba’zan tinglovchining diqqati sifatlovchiga tortilganda, so‘zlovchi uning odatdagi tartibini o‘zgartirib, sifatlanmishdan keyin, ravish holi esa fe’l-kesimdan keyin keltiradi. Natijada sifatlovchi yoki ravish holi gapning boshqa bo‘laklaridan boshqacha ohang bilan ajralib qoladi. Sifatlovchi yoki holning ma’nosi odatdagi tartib bo‘yicha qo‘llangan sifatlovchi yoki holga nisbatan bo‘rttiriladi, alohida ta’kidlanadi. Gapdagi eng ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismga aylanadi.

Nor chavandoz yotadi shikan,

titrar – bezgak ko‘ksin tiladi.

Eski do‘sti Ro‘zinikidan

ko‘pkariga xabar keladi.

(Otamurod Ikrom. Sen. –T.: Qatortol-Kamolot, 1999. 45-bet)

Misralarda ajratilgan kesim (*bezgak ko'ksin tiladi*) hamda izohlovchi aniqlovchi (eski do'sti Ro'zi) mavjud. Ular orqali ma'lum bir bo'lakning ma'nolari bo'rttirib ochib bergan bo'lsa, lisoniy tomondan esa matnda sintaktik ortiqchalikning uslubiy xoslanishi yuzaga kelgan.

Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar, umumlashtiruvchi so'z bilan qo'llangan uyushiq bo'laklar, yoyiq hamda ajratilgan undalmalar sintaktik ortiqchalik sifatida poetik matn badiiy-uslubiy vazifa bajaradi.

Implitsitlikka zid ravishda eksplitsit ifoda sintaktik ortiqchalik tamoyilida ajratilgan bo'lak, uyushiq bo'lak, umumlashtiruvchi bo'lak, takror, yoyiq hamda ajratilgan undalmalarda amal qiladi hamda shakliy-mazmuniy to'liqlik, intonatsion butunlikni ta'minlaydi, emotsional-ekspressiv, konnotativ, emotiv vazifani bajarishga xoslanganib, ma'noning aniq va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi.

Fonetik ortiqchalik shartli ravishda tovushning ortiqcha qo'llanishida amal qilib, poetik matnda nutq tovushlari talaffuzi bilan bog'liq evfonik ohang, emotsional-ekspressivlikning aks etishi geminatalarda, mustaqil va yordamchi so'zlarning fonetik variantdoshligida aniq ko'rinadi.

Semantik ortiqchalik semalarning pleonastik qo'llanishi bilan yuzaga kelib, semalarning bir arxisema asosida mazmuniy maydonni hosil qilishi arxisemaning xususiy semalarini reallashtiradi, poetik matnda predikativ, atributiv, relyativ, koordinativ munosabatdagi tanlangan semalar takrorida fikrni ta'kidlash, bo'rttirish orqali emotsional-ekspressivlikni oshirish ko'zda tutiladi.

Umuman olganda, morfologik ortiqchalik bir xil yoki sinonim affikslarning distant yoxud kontakt holatda pleonastik qo'llanishi bilan yuzaga kelib, poetik matnda asosan shakl yasovchilar emotsional-ekspressivlikni oshirish, estetik bo'yoq berish, ta'kidlash hamda ikki xillikka yo'l qo'ymaslik maqsadi bilan qo'llanadi; leksik-morfologik ortiqchalik esa leksema va affikslar doirasida atributiv, koordinativ, predikativ tartibda joylashib, emotiv-uslubiy ma'no tavsifida bo'ladi.

XULOSA

O'zbek tilshunosligida tejamlilik tamoyilining fonetik, morfonologik, sintaktik sathda, ortiqchalik tamoyilining morfologik (affiksial), sintaktik sathda amal qilishi lingvistik aspektda o'rganilgan bo'lib, ishda mazkur hodisalarning stilistik ahamiyati poetik matn misolida tahlil etildi.

Poetik matnda fonetik tejamlilik ayrim so'roq olmoshlari hamda yordamchi so'zlarning fonetik qisqaruvi, fuziya hodisasining meyoriy yoki nomeyoriy ko'rinishlari asosida yuzaga kelib, fonotsion energiyani tejash orqali vaznda yuzaga kelgan talaffuz bilan bog'liq ayrim noqulayliklarning oldini olish, talaffuzda qulaylikka intilish, shuningdek, sillabik tenglikni saqlash, ayrim o'rinlarda ekspressiv vazifa bajarish masalalari ochib berildi.

Leksik tejamlilik quyidagi shakllarda ifodalanadi:

a) substantivatsiyada leksemani tejashdan poetik matnda fikrni ixcham, qisqa ifodalash orqali lakonik ifodada aniq mazmunni yuzaga keltirish, ba'zi o'rinlarda konnotativ, emotiv ma'noni ro'yobga chiqarish nazarda tutiladi;

b) metaforada obrazli ixchamlik, metonimiya va sinekdoxada fikrning "zich" joylashishi ma'lum bir a'zoning tushirilishi hisobiga ro'y berib, yangi leksik ma'noning hosil bo'lishiga zamin yaratadi, umumlashtiruvchilik, jamlik, tasviriylilik, ajratib ko'rsatish imkoniyatlariga egaligi bilan ajralib turadi.

Leksik ortiqchalik quyidagi ko'rinishlarda amal qiladi:

a) sinonimik munosabatdagi leksema yoki frazemalarning semantik ko'lamini hisobga olgan holda qo'llashda takroriylikka yo'l qo'ymaslik, zamon hamda makonni aniqlash, ta'kid, emotsional-ekspressivlikni oshirishga xizmat qilish maqsad etiladi.

b) poetik parafrazalar muqobil leksema bilan pleonastik qo'llanganda, oddiy tasvirdan obrazli tasvirga o'tish, konnotativ vazifa nazarda tutiladi.

Lisoniy tahlillarga asoslanib, tejamlilikning yuzaga kelishi shakllarning qisqarishi, tushirilishi bilan bog'liq bo'lgani sababli, semantik tejamlilikni shaklan ifodalab bo'lmaydi, degan xulosaga kelindi.

Morfologik tejamlilik poetik matnda qulaylik, ixchamlilikni ta'minlashga xizmat qilib, kelishik, egalik, shaxs-son, kesimlik affikslarini stil maqsadi bilan tejash takroriylikka yo'l qo'ymaslik, sillabik tenglik, nutqiy qulaylikka intilish orqali badiiy axborotni aniq tushunishga imkon beradi.

Ellipsisda gapdan muhim bo'lmagan bo'laklarni nutq situatsiyasi hamda kontekstga bog'liq holda tushirish orqali ixcham, lo'nda fikrni ifodalash maqsad etilsa, jim qolish usulida misralarning implitsitlikka xizmat qilishi tinish belgisi (ko'p nuqta) va intonatsiya (ohangning birdan kesilishi, to'xtab qolish, tugallanmaganlik, sukut)ning estetik maqsadga qaratilishi bilan bog'liq holda sintaktik tejamlilikni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. RAHBARIY ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: O‘zbekiston, 1997. 180 bet.
2. Karimov I.A. Milliy Istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonch. – T.: O‘zbekiston, 2000. 220 bet.
3. Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: O‘zbekiston, 2000. 220 bet.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. 168 bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: Ma'naviyat, 2011. 180 bet.

II.ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati.- T.: O‘qituvchi, 1974.- 308 b.
2. Hojiyev A. O‘zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug‘ati. - T.: O‘qituvchi, 2001 - 120 b.
3. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. –T.: O‘zME, 2002. - B.101.
4. Jamolxonov. N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2005. Darslik. O‘z. ROTV tasdiq.
5. Mahkamov N. Terminologiyada “ekonomiya prinsipi” // O‘zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari: I Respublika terminologiya konferensiyasi materiallari. -T.,1986. (byulleten O‘zR FA). -B. 49-50.
6. Maxmudov N. Ellipsis v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. diss. ...kand.filol.nauk .-T.,1978.
7. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida ellipsis natijasida sinekdoxaning sodir bo‘lishi // O‘zbek tilshunosligi masalalari. 475-chiqishi. -T., 1975. –B.59-67.

8. Misliddinova M. Talaffuzdagi tejamlilik // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2005. -№5. -B.80-83.
9. Nurmanov A. Prinsipi ekonomii v foneticheskix izmeneniyax uzbekskogo yazika: Avtoref. diss. ...kand.filol.nauk. -T.,1973.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild, – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006.
11. Ojegov S.I. Slovar russkogo yazika. –M.: Russkiy yazik, 1991. –S.785.
12. Ona tili (maktab o'quvchilari uchun). Qomus. –T.: Yangi asr avlodi. 2010. Mualliflar jamoasi. 267 bet.
13. Saitboyeva M. O'zbek tilida fe'l kesimi ellipsisga uchragan ayrim gaplar // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1979. -№5. –B.76-77.
14. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 164 bet.
15. Tojiyev Y. O'zbek tilida affiksial sinonimiya. –T.: Universitet. 1991. 80 bet.
16. Turobova M. Sintaktik tejamlilik hodisasi // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2006. -№ 5. -B. 79-83.
17. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili, -T.: O'qituvchi, 1992.
18. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: Filol. fan. nomz. dis. ... avtoref. - T., 2009 - 26 b.
19. Yusubova R. Egalik-qarashlilik semasining elliptik ifodalanishi //O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2008. -№4. -B.65-68.
20. Yusubova R. Hozirgi o'zbek poeziyasida lisoniy tejamlilik va ortiqchalik (A.Oripov lirikasi misolida) : Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. –T., 2011. 26 bet.
21. Yusubova R. Pleonazmning yuklamalar doirasida qo'llanishi // Ilm sarchashmalari: UrDU. -Urganch, 2009. -№4. -B.97-99.

22. Yusubova R. Sinonimlarning leksik ortiqchalikka munosabati xususida // Professor-o‘qituvchilar va talabalarning XXIV ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. III qism. -Navoiy, 2009. -B.46-48
23. G‘ulomov A. Fe‘l. - T.: Fan, 1954. - 88 b.
24. Sheronov B. O‘zbek tili gap qurilishida lisoniy ortiqchalik: Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. –T., 1996. -B.9.
25. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. - T.: O‘qituvchi, 1980. - 447 b.
26. Shukurov I. Ellipsis sababli otlarda nutqiy metonimiyalar sodir bo‘lishi // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1982. -№3. –B.44-46.

III. ELEKTRON RESURS MANBALARI

1. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
2. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
3. www.ziyonet.uz
4. www.ziyouz.com
5. www.kutubxona.com
6. www.turklib.uz
7. www.literature.uz